

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

2025-yil
9-yanvar
payshanba
№ 2 (4696)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

**Bir yonim suv, bir yonim cho'l bo'lmasa,
Jannat qurib bersang-da men bormayman.**

**Gul ham yavshan isi anqib turmasa,
U yerda men qoraqalpoq bo'lmayman.**

**Ibroyim YUSUPOV,
O'zbekiston Qahramoni.**



Qoraqalpog'iston Respublikasida fidokorona xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati haqidagi maqolalar bilan 12–13-sahifalarda tanishasiz.

**YANGI O'ZBEKISTON
BUNYODKORLARI**



2



BAXTNING SUVRATI

11

**ШАМОЛ
БЕЛАНЧАГИДАГИ ОҚ ГУЛ**



21

YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

Ichki ishlar organlari yosh xodimlarining jamiyatdagi faolligini oshirish, ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish, ilg'or g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, faol yoshlar bilan davlat boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkamlash maqsadida «Yoshlar haftaligi» tadbiri yuqori saviyada tashkil etildi. Haftalik davomida yurtimizning chekka hududlarida xizmat olib borayotgan 100 nafar yosh xodimlar ishtirokida Toshkent shahrida 5 kunlik o'quv-amaliy malaka oshirish kursi tashkil etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida ochiq muloqot, IIV Akademiyasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham o'tkazildi.

Shuningdek, mamlakatimiz bo'ylab ichki ishlar organlari tizimida uzoq yillar samarali xizmat qilgan, boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan soha faxriylari bilan «Uch avlod», «Rahbar va yoshlar» uchrashuvlari, kitobxonlik bellashuvlari, «Zakovat» intellektual o'yinlari, tabarruk qadamjolariga sayohatlar tashkil etilib, bu o'z navbatida yosh xodimlarda unutilmas taassurotlar qoldirdi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



TOSHKENT SHAHRI



XORAZM VILOYATI



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 150 YILLIGI OLDIDAN

ULUG' JADID IQRORLARI

yoxud yillar silsilasidan o'tgan hikmatlar

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuotni rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi insondir.

U chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'lib, mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va 300 ga yaqin maqolalar bitgan. Shu bilan birga, «Samarqand» gazetasi hamda «Oyina» jurnaliga asos solib, 1914-yilda «Turon» teatrida sahnalashtirilgan «Padarkush» dramasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamal toshini ham qo'ygan.

Keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida buyuk jadid bobomizning muazzam haykali o'rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e'tirof etildi. Iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja

Har zamonning ilmi, hikmati va parvarishi boshqadur. Modomiki, har bola, ya'ni har kimning zamoni, otasi zamonidan boshqa bo'lsa va har otag'a o'z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong'a muvofiq suvratda tarbiya va ta'lim etmog'i lozim bo'lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg'a o'rgatmaymiz?

Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o'g'ul to'ylarig'a sarf qilaturgon aqchalarig'ingizni mana shul ilm zamoni yo'lig'a sarf etingiz, sizdan o'g'lungizg'a mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsun.

Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak.

Makotib – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning durdonasidir.

Fanning ibtidoiy ta'limini ko'rmagan kishiga o'rta va oliy qismini madrasalarg'a kiritgizub ta'lim bermakdin foyda chiqmaydur.

Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o'shal maktab va madrasa



Behbudiy nomidagi mukofot ta'sis qilingani ham katta qadam bo'ldi. Davlatimiz rahbarining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qabul qilingan qarori esa dunyoni ma'rifat qutqarishiga ishongan dillardagi ishonchni bir necha pog'onaga ko'targani rost.

Negaki, ulug' bobomiz qoldirgan ulkan ijodiy merosni bugungi avlod albatta o'rganishi, undan o'zlariga yuksak ibrat olib, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmog'i darkor. Quyida Mahmudxo'ja Behbudiy bisotidan o'rin olgan va yillar silsilasidan o'tib kelayotgan o'lmas hikmatlarni e'tiboringizga havola etamiz...

muallim va mudarrislari olim bo'lsa va shogirdlarig'a ko'ngli ilan ta'lim bersa, albatta, ilm hosil qilur. Agarda muallimning o'zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhafsala yoinki kamilm bo'lsa, yoinki ilmi bo'lub turub, usuli tahsildan xabarsiz bo'lsa, aning shogirdlari nodon qolur.

Ilm mushtarakdur. Bilgannikidur.

Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zalolat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir.

Bir dasta tayoqni birga bog'lasangiz, kimsa sindirolmas. Agarda ajratsangiz, bir-birin har kim sindirar.

Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdan foydalanmas.

Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo'q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo'q.

Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

Shavkat MIRZIYOYEV

MA'LUMOT O'RNIDA:

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida Samarqandga kelib qolgan. Oila-dagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirgan. Behbudiy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan.

1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona «Yangi rasta»da ochilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yilda oila qurib, to'rt o'g'il hamda bir qiz farzand ko'rgan. 1926–1937-yillar davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan atalgan. Uning asarlari yurtimizdagi darslik va o'quv qo'llanmalariga kiritilgan. Toshkent va Samarqand shaharlaridagi ko'cha va maktablarga uning nomi berilgan. Tojikistonning Xo'jand shahrida Behbudiy sharafiga gimnaziya ham ochilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yili Favqulodda komissiya ayg'oqchilari yordamida Shahrisabz bekligida qo'lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan yordamchisi Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinidagi «podsholik chorbog'i»da o'ldirilgan.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Служба Родине — высшее счастье

РАТНАЯ СЛУЖБА ПОЛКОВНИКА

Командир войсковой части № 7533 Караульных войск Министерства внутренних дел, дислоцированной в городе Карши, полковник Жасур Сагдуллаев четверть века исправно несет ратную службу. Он окончил Ташкентское высшее общевойсковое командное училище, Академию Вооруженных Сил. За его плечами богатый опыт службы в войсковых частях № 7531 и № 7553.

По его инициативе с целью повышения эффективности физподготовки военнослужащих и создания для этого необходимых условий построен спортивный комплекс «Workout». Оборудован караульный городок. Осуществляются целенаправленные меры по социальной защите членов семей военно-

служащих, регулярно проводятся культурно-просветительские мероприятия.

Повышение профессионализма личного состава приоритет командования войсковой части. Военнослужащие принимают участие в смотре-конкурсе «Лучший специалист», удостоены призовых мест в номинациях



«Лучший командир группы», «Лучший командир взвода», «Лучший командир батальона».

– Полковник Жасур Сагдуллаев обладает способностью мобилизовать личный состав на решение самых ответственных задач. Он требовательный и инициативный руководитель, – говорит начальник отдела организации воспитательной и идеологической работы командования Караульных войск подполковник Шермат Кулиев. – Отличается твердостью и целеустремленностью, что способствует достижению поставленных целей.

Азамат ХОЛМАТОВ.

Республика Каракалпакстан

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

С момента основания Нукусского военно-академического лицея МВД Узбекистана «Темурбеклар мактаби» его успешно окончили 306 учащихся. Более 96% из них продолжают обучение в высших учебных заведениях, в том числе военных. Среди выпускников двое – обладатели золотых медалей, двое – серебряных, 51 ученик окончил лицей с отличием.

Лицей активно сотрудничает с различными образовательными и культурными организациями. В рамках подписанных меморандумов установлены партнерские связи с Центром духовности и просветительства, Союзом писателей Каракалпакстана, организацией «Ватанпарвар», музеем имени И. Савицкого и другими учреждениями. Лицей сотрудничает с Президентской школой и творческой школой имени И. Юсупова, а также с Каракалпакским академическим лицеем МВД Узбекистана.

За прошедшие годы было организовано более 180 духовно-просветительских, культурных, спортивных и интеллектуальных мероприятий. Сегодня в лицее обучаются 201 ученик из разных



регионов Узбекистана. Образовательный процесс обеспечивают 33 квалифицированных педагога совместно с военнослужащими.

Минувший год стал насыщенный для лицея. В мае команда учащихся заняла третье место на соревнованиях «Потомки Амира Темура», организованных в военно-академическом лицее Нацио-



ственный деятель, покровитель науки и полковдец», который прошел в Ташкенте. Учащийся лицея **А. Абдусаломов занял третье место** и был награжден почетной грамотой и ценным подарком.

третьими по физике, математике и истории.

Лицейсты активно развивают свои навыки в ходе внеклассных занятий, успешно осваивают информатику, продолжают сотрудничество с наставниками даже во время каникул. Летом 2024 года трое лицеистов посетили детский оздоровительный лагерь «Артек».

Кроме того, воспитанники лицея стабильно занимают призовые места на интеллектуальных турнирах, в том числе в игре «Заковат». В 2024 году 33 ученика получили национальные и международные сертификаты по иностранному языку, а 55 – сертификаты в области информационных технологий.

Лицей продолжает развиваться. Педагогический коллектив наметил амбициозные планы на 2025 год по дальнейшему повышению эффективности учебно-воспитательного процесса, развитию способностей учащихся.

Шерзод ИБРАГИМОВ,
подполковник.



нальной гвардии в Ташкенте. На республиканской олимпиаде по математике, физике, истории и иностранному языку «Последователи Амира Темура», прошедшей в Нукусе, лицей завоевал первое место и Кубок министра внутренних дел Узбекистана.

Среди достижений – успешное участие в конкурсе эссе на тему «Амир Темура – великий государ-

С 25 ноября по 4 декабря представители лицея выступили на третьем (областном) этапе главной предметной олимпиады, завоевав призовые места по 11 дисциплинам. Так, **Ж. Мамиржанов занял первое место по английскому языку, О. Мирзакаримов – второе место по немецкому языку, а С. Аймуратов, Р. Анарбаев и Н. Адиллов стали**



DIL IZHORI

Har bir yakuniga yetgan yil kishini qanday natijalarni qo'lga kiritgani borasida sarhisobga chorlaydi. Men ham ortimga nazar tashlab, bir yillik faoliyatimni tahlil etdim. O'ylab qarasam, ustozlarimdan o'rganganlarimni xizmatga tatbiq etib, tavsiya va maslahatlariga amal qilib kam bo'lmabman.

NIYAT XOLIS BO'LSA...



O'tgan yilda bir qator maqolalarim xalqaro jurnallarda chop etildi. MDH miqyosida tashkil etilgan konferensiyalarda, xalqaro tanlovlarda qatnashib, «O'z kasbining fidoiysi», «Ta'lim iftixori» ko'krak nishonlari bilan taqdirlandim. Shu yili sevgan insonimga turmushga chiqdim, uy-joyli, mashinali bo'ldik. Turmush o'rtog'im Xitoyning nufuzli yuridik kompaniyasining yurtimizdagi vakilligi rahbari etib tayinlandilar.

Kirib kelgan yangi yilda ham rejalarim ulkan. Avvalambor, elimiz osoyishtaligini ta'minlash yo'lida bor bilim va imkoniyatlarimni ishga solib xizmat qilaman. Qolaversa, ilmiy izlanishlarimni ham davom ettiraman. Niyat xolis bo'lsa, albatta, amalga oshadi, deyishadi.

Sevara FAYZULLAYEVA,
leytenant.

SOHAVIY XIZMATLARDA

JONBOZLIK EVAZIGA

Poytaxtning Yakkasaroy tumani IIOFMB 4-sonli IIB hududning eng markaziy qismida joylashgan. Mavjud 6 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi aholi soni 33 ming nafardan oshiq. Ko'p qavatli uylar va hovlilardan tashkil topgan hududda bir nechta yirik davlat idoralari, ta'lim muassasalari hamda korxonatashkilotlar joylashgan. Bu esa xodimlardan alohida mas'uliyat va hushyorlik talab etadi.

Oqibati bilan emas, sabablari bilan kurashish kerakligini anglab yetgan ham IIB xodimlari jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yuzasidan o'zlari-ga yuklatilgan vazifani sharaf bilan ado etib kelishmoqda. Xususan, huquqbuzarlikka moyil bo'lgan shaxslar profilaktik hisobga olinib, ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Uyushmagan yoshlar bilan sayyor qabul tarzida ochiq muloqotlar tashkil etilib, muntazam ravishda ularning muammolari va takliflari o'rganilmoqda. Tegishli tashkilotlar hamkorligida muammolarning hal etilishi va takliflar nazoratga olinib, ularning amalga oshirilishi natijasida bir qancha yoshlar kasb-hunarga o'rgatildi, oliy



ta'lim muassasasiga o'qishga kirganlariga shartnoma pullari to'lab berildi, ishga joylashtirildi, tadbirkorlikni boshlashga qiynalib yurganlariga yo'l-yo'riq ko'rsatildi. Natijada ularning davlatga hamda kelajakka bo'lgan ishonchi yanada oshdi.

Sir emas, jinoyatlarning «is-siq izida» ochilishi xodimlarning mahorati va tajribasiga bog'liq. Bu borada ham o'zini namoyon etayotgan xodimlar talaygina.



– Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatib, hamkasblariga o'rnak bo'layotgan xodimlarimiz ko'p. Surishtiruvchilar, mayorlar Shokirjon Toshboyev, Muzaffar To'laganov, JQB katta tezkor vakili, mayor Farrux Hasanov, IIB HPB boshlig'i, katta leytenant Shuhrat Nurmatov, Bobur nomli MFY profilaktika inspektori, katta leytenant

Sherali Saidaxmadov, «Bog'saroy» MFY profilaktika inspektori, leytenant Farrux Muxtorov, navbatchilik qismi navbatchilari, mayor Botir Sharopov hamda kapitan Akromjon Ikromovning nomini alohida ta'kidlab o'tishni joiz deb bildim, – deydi 4-sonli IIB boshlig'i, kapitan Shohruxxo'ja Asilxo'jayev.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

POSBONIMAN MUQADDAS YURTNING!

MAS'ULIYATNI HIS ETIB

Kichik serjant Shavqiddin Ahmedov Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli polkovnik R.Razumov komandirlik qilayotgan 7531-harbiy qismda shartnoma asosida xizmat qiladi. U hozirda harbiy qism 3-batalyon 8-vzvod 2-guruh qorovul boshlig'i.



2008-yilda xizmatni boshlagan lavhamiz qahramoni dastlab seksiya komandiri, keyinchalik qorovul boshlig'i yordamchisi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. O'zining mas'uliyatligi va tirishqoqligi bilan hamkasblariga o'rnak bo'ldi. O'n olti yildan buyon sadoqat bilan xizmat qilayotgan Shavqiddin bugun chin ma'noda jamoaning faxriga aylangan.

– Konvoy xizmatiga kirishar ekan-siz, sizga naqadar mas'uliyatli vazifa ishonib topshirilganini aslo yoddan chiqarmaslik kerak. Harbiylikning temir qoidalariga amal qilish va bajarishimiz

shart. Demochimanki, xizmat paytida biz hushyorlik va mas'uliyatni bir soniya bo'lsa-da unutishga haqqimiz yo'q, – deydi lavhamiz qahramoni.

Shavqiddin Ahmedovni batalyonda ko'pchilik ustoz deya hurmat qiladi. O'z navbatida, u ham yosh hamkasblaridan yordamini ayamaydi.

Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.

Suratda: kichik serjant Sh.Ahmedov (chapdan birinchi) qorovul shaxsiy tarkibi bilan xizmat yo'riqnomasi paytida.

Фоторепортаж

В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ – БЕЗОПАСНОСТЬ НА ДОРОГАХ


Наманганская область

Инспекторы УБДД СОБ УВД области проводят рейды по обеспечению безопасности дорожного движения. По выявленным в ходе проверок нарушениям принимаются соответствующие меры.



Кашкадарьинская область

Сотрудники УБДД СОБ УВД области проводят разъяснительную работу среди несовершеннолетних. Девиз – «Дисциплина дорожного движения начинается с детства».



Сурхандарьинская область

В Термезе проведен опрос на тему «Безопасность дорожного движения под общественным контролем». Получены ответы на вопросы о том, насколько созданы условия для обеспечения безопасности дорожного движения. Жители города приняли активное участие в опросе, высказали ряд конструктивных предложений.



Женщины в погонах

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ – ОСНОВА ЕЕ УСПЕХА

В юности Азиза Юсупова с восхищением смотрела на женщин в форме и мечтала о том дне, когда сама сможет посвятить себя ответственной службе.

Она училась на экономическом факультете Ташкентского государственного аграрного университета. После окончания вуза поступила на службу в Главное управление внутренних дел города Ташкента, где успешно трудится около 14 лет.

Профессиональные навыки нарабатывала под руководством наставника – начальника отдела полковника Нодирсы Расулевой.



В дальнейшем А. Юсупова продолжила службу инспектором по вопросам женщин в отделах профилактики правонарушений УКД ОВД, исполняла обязанности оперативного дежурного в

оперативно-дежурной части ГУВД столицы.

В настоящее время капитан Азиза Юсупова является старшим специалистом отдела пенсионного обеспечения службы материального обеспечения столичного ГУВД. Она занимается расчетом выплат, обеспечивает своевременный перевод средств на пластиковые карты пенсионеров, доставку наличных тем, кто их получает. На нее возложены такие задачи, как назначение пособий семьям по утрате кормильца, социальных пособий несовершеннолетним.

«Пунктуальная, ответственная, на нее всегда можно положиться», – так отзываются о героине очерка коллеги.

Соб. корр.

KASBIDAN BAXT TOPIB

Oliyog'ni tamomlab, o'zi tahsil olgan Termiz shahridagi 9-maktabda psixolog bo'lib ishlayotgan Nuriddin Ro'ziqulov ichki ishlar organlarida ishlash niyatida hujjatlarini topshirib, uning javobini intiqlik bilan kutayotgan payt edi. Bu orada o'zi ishlayotgan maktabda ham qator tashabbuslarga qo'l urgani, tirishqoqligi uchun «Eng yaxshi psixolog» deb topilgan qahramonimizga Samarqand viloyati Milliy gvardiya boshqarmasida ishlash taklif etildi.

– To'rt yil Samarqandda ishladim, – deydi Nuriddin Ro'ziqulov. – Yilda bir marta faqat mehnat ta'tili paytida uyga kelib-ketardim. Bu yerdagi xizmat faoliyatim davomida katta tajriba orttirdim va bu inspektorlik faoliyatimda ancha qo'l keldi.


2022-yil Nuriddinning ichki ishlarda ishlash niyati ro'yobga chiqdi. U Termiz shahridagi «Shifokor» mahallasiga profilaktika inspektori etib tayinlandi. Biroq Nuriddin xizmat vazifasiga kirishgan paytda mahalla hududi «qizil» toifada edi.

Ishni mahalladagi doimiy ro'yxatda turmaydigan aholi bilan yaqindan tanishishdan boshladi. Ularning xulqini o'rganib, zararli xulq-atvoriga ega shaxslarni aniqlab, ular yashaydigan ijara uy egalari bilan suhbatlashdi. Hududda sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning sabablarini tahlil qilib, ularning ol-

dini olish bo'yicha zarur choralarini ko'rdi. Inspektorning mahalla yettiligi bilan hamkorligi natijasida 2022-yilning so'ngiga borib, mahalla «yashil» hududga aylandi.

– Ko'proq odamlar orasida bo'lish, har kuni mahallaning u boshidan bu boshigacha aylanib, ko'z bilan ko'rib, ishonch hosil qilish kerak, – deydi u. – Hozir ham mahalla hududidagi restoran, aholiga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining ish vaqti yakuniga yetmaguncha mahalla hududida bo'laman. Xizmat tajribamdan shunga amin bo'ldimki, muammoni idorada o'tirib hal qilib bo'lmas ekan. Xalq orasida yursangiz, aholining ishonchi ortadi, ko'zlagan natijaga ham erishasiz.

«Shifokor» mahallasida 4177 nafar aholi istiqomat qiladi. Profilaktika katta inspektori doimiy ravishda «xonadonbay» suhbatlar o'tkazib, mahalladagi



7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lganlarni barini yaxshi tanib olgan. Ammo nizoli oilalardagi janjallarni ko'rib, ko'ngli xira tortadi. Ularni bartaraf qilish uchun esa nizoli oilalarga ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak berishga shoshiladi. Boqimandalik kayfiyatidagi odamlar bilan ko'proq suhbatlar o'tkazib, ularni mehnat qilishga undaydi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, mahalladagi 10 ta nizoli oilaning 8 tasi yarashtirildi.

Nuriddin Ro'ziqulov o'z kasbidan baxt topib, fidoyilik bilan xizmat qilib

kelayotgan xodimlardan. Oilali, turmush o'rtog'i Sevara Xolmurodova bilan uch nafar farzandni bekamu ko'st tarbiyalamoqda. Ba'zan mahalladagi xonadonlarni ko'zdan kechirganda kichik yoshli o'g'li unga hamrohlik qiladi. Farzandlarining tarbiyasiga, ularni bo'sh vaqtlarida fan mashg'ulotlari, sport bilan shug'ullanishlariga alohida e'tibor qaratadi.

Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

TAYOQ EGRI BO'LSA...

Mirzacho'l tumanining «O'zbekiston» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi F.H. mazkur hududdan o'tgan eski ichimlik suvi quvurlarini sotib yuborish payiga tushib qoldi. Mahallaga yangi suv tarmog'i tortilgan, eskisidan esa foydalanilmayotir. Qisqasi, u ekskavatorchi yo'llab, qishda hech kim bormaydigan chekka dala maydoni bo'ylab tortilgan quvurlarni qazib oldi. To'plangan 10 tonna metallni tashlandiq og'ilxonaga yashirib qo'ydi.



So'ng «ZIL» yuk mashinasi haydovchisi, G'allaorol tumanida istiqomat qiluvchi J.M.ning avtoulloviga quvurlarni yukladi. Biroq bu paytda tuman suv ta'minoti korxonasi tegishli quvurlarning o'g'irlangani oshkor bo'lgandi. Bundan xabar topgan ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatchilarni izlashga kirishdilar. Natijada ko'p o'tmay avtomashina to'xtatilib, haydovchi ushlendi.

Holi «voy» bo'lishini sezgan haydovchi «suvdan quruq chiqish» yo'llarini qidira boshladi. Chunonchi, qonunbuzarlikni fosh qilgan tuman IIB TQX JQG tezkor vakili, katta leytenant Ismatulla Tojiboyevga 500 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Buning evaziga xodim «ZIL»ni yuki bilan jarima

maydonidan chiqarishi, shuningdek, jinoyat ishiga oid hujjatlarini yirtib tashlashi kerak edi. Tezkor vakil J.M.ning bu qilmishi qonunga zid ekanligini tushuntirdi.

Lekin pulni hamma dardga malham, deb bilguvchi haydovchi fikridan qaytmadi. Shu bois tezkor vakil holat bo'yicha rahbariyatni xabardor qildi. Pirovardida IIV SHXBB viloyat bo'yicha bo'limi hamda prokuratura xodimlari ishtirokida tezkor tadbir o'tkazilib, 500 AQSH dollarini tezkor vakilga bergan haydovchi qo'lga olindi. «Egri tayoqning butog'i burun yirtar» deganlari shu bo'lsa kerak-da...

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

SOHA FIDOYISI

MAQSADGA AYLANGAN HAVAS

...Kechagidek yodida – Sarvar ichki ishlar organi xodimi bo'lgan otasi uyga kelishi bilanoq uning bosh kiyimini kiyib olar «Katta bo'lsam, dadamdek bo'laman!», derdi dadillik bilan. Bolalikda uyg'ongan bu havas bora-bora aniq maqsadga aylandi. Maktabni tamomlagan lavhamiz qahramoni avvaliga Farg'onadagi litseyda, keyin Toshkent oliy harbiy-texnika bilim yurtida tahsil oldi.

Ayni paytda IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentining Tezkor qidiruv boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili bo'lib faoliyat ko'rsatayotgan Sarvar Otajonov orzusi amalga oshgan fidoyilardan.

Yigirma besh yildan buyon tizimda jonkuyarlik bilan xizmat qilayotgan podpolkovnik S. Otajonovning otasi Yuldosh Otajonov uzoq yillar el-yurt osoyishtaligi yo'lida faoliyat yuritib,

Transportdagi IIB JQB boshlig'i lavozimidan izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatilgan. Biroz muddat «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati yuristi lavozimida ham faoliyat olib borgan faxriyimiz hozir shirindan-shakar nevaralari qurshovida, turmush o'rtog'i Xosiyat aya bilan tinch-totuv umrguzaronlik qilmoqda.

– Sohadagi ustozlarim qatori otam ham mustahkam tayanchim, – deydi lavhamiz qahramoni. – U kishi mendan kasbga oid maslahatlarini ayamay kelayotir. Padari buzrukvorimning o'g'itlariga doim quloq tutaman.

Oila – muqaddas dargoh. Sarvar xizmatdan bo'sh paytlarini turmush o'rtog'i va farzandlari bilan o'tkazadi. To'ng'ich farzandi Komila kelajakda onasiga o'xshab oliy ma'lumotli hisobchi, kenjasi Behruzbek sulola ishini davom ettirib, ichki ishlar organi xodimi bo'lish niyatida.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.



Tuman IIBda

Do'stlik tumani: OLDINGA INTILIB

Do'stlik tumani Ichki ishlar bo'limida shaxsiy tarkibning jismoniy, jangovar hamda kasbiy tayyorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada soha vakillari ishtirok etayotgan ko'rik-tanlov va musobaqalarda ular yuqori natijalarga erishmoqda.

Jumladan, o'tgan yili «Eng namunali huquq-tartibot maskani» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida profilaktika inspektorlarimiz 3-o'rinni egallashdi. Bundan tashqari ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida tashkil qilingan «Zakovat» intellektual o'yini viloyat bosqichida tumanimiz jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Xuddi shunday, viloyat IIB boshlig'i kubogi uchun o'tkazilgan futbol musobaqasida tuman IIB jamoasi 1-o'rinni egalladi.

Profilaktika inspektorlari, katta leytenantlar Oybek Qorjovov va Jo'rabek Bo'kanov, yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektori, katta serjant Dilshod Qarshibekovlar qonunbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ham hamkasblariga ibrat ko'rsatishyapti.

Shuningdek, soha vakillari ov qurollarining saqlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq qonunbuzarliklarning oldini olish choralari ni ko'rmoqda. Natijada 11 ta



huquqbuzarlik aniqlanib, tegishli tartibda bayonnomalar rasmiylashtirildi, 1 nafar fuqaro esa noqonuniy saqlayotgan ov

tamomlanib, ayblov xulosalari sudlarga yuborilgan.

Soha vakillari tomonidan o'tkazilgan tergov harakatlari davomida jismoniy va yuridik shaxslarga 1 milliard 393 million so'm ziyon yetkazilgani aniqlanib, ushbu zararining 1 milliard 46 million 650 ming so'mini undirishga erishilgan. Katta

EZGULIK BAXSH ETAYOTGANLAR

«Saritepa» mahallasi-da istiqomat qiluvchi Jahongir O'tayevning turarjoyi ta'mirlandi. G'afur G'ulom nomli mahallaning Mingchinor ko'chasidagi ko'p qavatli uylarning 2 ta qozonxonasi yangilandi. «Bunyodkor» mahallasida O'zbekiston ko'chasiga 200 metrlik ichimlik suvi quvurlari yotqizildi. Shu kabi ezgu ishlar tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor ishchi guruhi tomonidan amalga oshirilmoqda. Binobarin, sektor ishchi guruhi sa'y-harakatlari bilan 12 kilometr yo'l betonlangan. 125 dona temirbeton ustunlar o'rnatilib, 1,4 kilometr uzunlikda elektr tarmoqlari tortildi, 2 ta transformator yangilandi.

kredit ajratildi. 142 kishi doimiy ishga joylashtirildi. Ijtimoiy daftarlarga kiritilganlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ish qurollari bilan ta'minlash hamda ularga tibbiy ko'mak ko'rsatish borasidagi natijalar ham ijobiydir.

JINOYATNI FOSH QILISHDA YORDAM BERGANI UCHUN...

«Qahramon» mahallasida istiqomat qiluvchi Y.B. ichki ishlar organlariga murojaat qilib, dala maydonida qarovsiz qoldirilgan 5 bosh qoramoli o'g'irlanganligini ma'lum qildi. O'z navbatida, soha vakillari tomonidan tezkor qidiruv tadbirlari o'tkazilib, mazkur jinoyat jabrlanuvchining mahalladoshlari J.J. va M.N. tomonidan sodir etilgani aniqlandi.

Mazkur qonunbuzarlikni fosh etishda fuqaro Ahmadqul Umirov soha vakillariga yaqindan yordam bergan. Shu sababli unga Jizzax viloyati IIB boshlig'ining qimmatbaho sovg'asi topshirildi. Aytgancha, dastlabki surishtiruv davomida ushlanganlardan biri o'tgan oyda «Qahramon» mahallasidagi fermer xo'jaligi dalasidan 3 bosh qoramol o'g'irlanganligini tan olgan.

Gumon qilinuvchilarning boshqa jinoyatlarga ham aloqadorligi o'rganilmoqda.
Akmal PARMONOV,
mayor.

Jizzax viloyati.



OSOYISHTALIKNI ASRAYOTGAN BEDORLAR

O'tgan yil boshida tumanda yuz bergan jinoyatlar tahlil etilib, 7 ta yo'nalishda tungi patrullik yo'lga qo'yildi. Mazkur yo'nalishlarda tungi xizmatni bajarishda tuman IIB jamoat tartibini saqlash guruhi xodimlariga profilaktika inspektorlari hamda mahalla yoshlari yaqindan yordam berishyapti.

qurolini topshirdi.

Bundan tashqari, xodimlar tomonidan 11 nafar fuqarodan o'tkir tig'li jismlar hujjatlashtirib olindi.

TERGOVCHIGA OSON, DEB O'YLAMANG

Tuman IIB huzuridagi Tergov guruhi xodimlari tomonidan o'tgan yilda 78 ta jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlari olib borildi. Bugunda mazkur jinoyat ishlarining 68 tasi

tergovchi, kapitan Farrux Habibullayev hamda surishtiruvchi, leytenant Doston Abdurasulovlar oldingi safda.

Xuddi shunday, bandlikni ta'minlash maqsadida sektordagi mahallalar tadbirkorlariga 5 milliard 963 million so'm miqdorida



Xizmatlarda



TEZKOR ZAMONGA MUNOSIB TARZDA

Sirdaryo viloyati IIB Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazida bir daqiqa ham ish to'xtamaydi. Zotan, aniq hisob-kitoblarsiz kriminogen vaziyatni, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish jarayonini, chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish mushkul.

Markazda ish jarayoni bundan o'n yillar-cha oldingidan keskin farq qiladi. Birinchidan, barcha ma'lumotlar to'liq raqamlashtirilgan.

– Viloyat miqyosida sodir etilgan jinoyatlarni hisobga olish, gumonlanuvchi, jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan va qidiruvdagi shaxslarning hisobini yuritish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajaramiz, – deydi markaz katta inspektori, katta serjant Ahmadjon Jiyonboyev. – Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar huquq-tartibot organlariga, sohaviy xizmatlarga tahlil uchun uzatib turiladi. Bu jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Yo'l-patrol xizmati va profilaktika inspektori plashet orqali ma'muriy huquqbuzarlikni rasmiylashtirgan zahoti bu haqdagi ma'lumot markazga kelib tushadi va hisobga olinadi. Ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan sudlanganlik holatiga oid ma'lumotnoma olish ham oson hal qilinadi. Murojaat elektron tarzda kelib tushgan zahoti u qayta ishlanadi va sudlanganlik holatiga aniqlik kiritish uchun o'n-o'n besh daqiqa kifoya qiladi. Shundan keyin ma'lumot elektron tarzda uzatiladi. E'tiborlisi, murojaatchi bunday ma'lumot olishi uchun hech bir joyga borishining hojati yo'q.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

OILA – MUQADDAS QO'RG'ON

HALOVAT MASKANIGA SHIKAST YETMASIN

Xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni o'rganadigan va ularga yechim topadigan qator tashkilotlar bilan birga, ichki ishlar organlaridagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarning zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklangan. Negaki, ayni masalalar negizida yuzaga kelayotgan oilalardagi qaltis vaziyatlar, nizolar, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, mazkur jarayonda ayollarimizning qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhimdir.



Angor tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, kapitan Navro'za Eshpo'latova ham xotin-qizlar muammolari mas'ul tashkilotlar vakillari, mahalla faollari bilan birgalikda ayollarni muammolarini «xonadon-bay» o'rganib, ularni bartaraf etish choralari ko'rib kelmoqda.

Hududdagi ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda «Biz zo'ravonlikka qarshimiz!» shiori ostida davra suhbatlari o'tkazilib, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar murojaatlari o'rganilmoqda. Og'ir vaziyatlarga tushib qolgan 16 nafar xotin-qiz tuman tibbiyot birlashmasidagi «Birlamchi ko'mak» xonalariga hamda ijtimoiy rehabilitatsiya markazlariga joylashtirildi. Ularga psixologik yordam ko'rsatilib, imkon qadar sog'lom turmush tarziga qaytarish choralari ko'rilayotir.

– O'tgan yilda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan 127 nafar xotin qizga tuman IIB HPB profilaktika inspektorlari tomonidan himoya orderi berilib, oilada kelib chiqqan nizolar bartaraf etildi, – deydi kapitan Navro'za Eshpo'latova. – Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolganlarning ish bilan ta'minlanishiga yaqindan ko'maklashilyapti. Xususan, 3456 nafar xotin-qiz «Ayollar daftari», «Temir daftari», «Yoshlar daftari»ga kiritilgan bo'lib, shundan 2707 nafarining bandligi ta'minlangan.

2024-yilda tumanda 934 ta notinch va nizoli oila mavjud bo'lib, ular bilan olib borilgan profi-

laktik chora-tadbirlar natijasida 741 ta oilaning nizosi bartaraf etilishiga erishildi.

... Asila kelinlik uyidagi odatlarga biroz ko'nikilmadi. Qanchalik harakat qilmasin, qaynonasining ko'ngliga yo'l topolmadi. Bu holat turmush o'rtog'i bilan munosabatlariga ham ta'sir qilmay qolmadi. Yaxshi bo'lib ketar ilinjida yashab yurib, farzandli ham bo'ldi. Ammo ahvol battar yomonlashdi. Eri kunora qaynona kelinning tortishuvlaridan bezib, ichkilikka berildi. Yaxshigina kira qilib yuradigan ishini ham tashladi. Yetishmovchilik esa nizolarni kuchaytirdi. Yomoni, Sherzod xotinini uradigan odat chiqardi. Sabr kosasi to'lgan Asila xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorga murojaat qilgach, unga himoya orderi berildi. Mahalla profilaktika inspektori Sherzodga himoya orderi shartlarini buzsa, unga qonuniy chora ko'rilishi mumkinligini tushuntirgach, ahvol biroz o'nglandi.

– Oilani saqlab qolish oson ish emas. Bunga har ikkala tomonning ham munosabati ta'sir qiladi, – deydi kapitan Navro'za Eshpo'latova. – Biz imkon qadar murosa yo'li bilan nizolarni barataraf etishga harakat qilamiz. Ammo ba'zi hollarda o'zini haq deyishdan nariga o'tmaydiganlarning ortiqcha harakatlarini esa qonun yo'li bilan cheklashga majbur bo'lamiz. Har holda, bu nizolarning biroz bo'lsa-da, kamayishiga yordam beradi.

Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

MOBILLASHIB BORAYOTGAN TAFAKKUR

Tafakkur mustaqilligining belgilaridan biri tashabbuskorlik bo'lib, u insonning o'z oldiga aniq maqsad va muddaolar qo'yish, ularni amalga oshirish yo'lidagi muammolar yechimini topish, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo'lgan usul va vositalarni belgilashida namoyon bo'ladi.

Mustaqil tafakkurga ega bo'lmagan kishi tayyor qarashlar asiriga aylanadi va ularda tafakkurning o'sishi o'zining tabiiy darajasidan orqada qoladi. Tafakkur qaramligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'ladi. Shuning uchun ham fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligini ta'minlaydi. Inson tomonidan muayyan vaqt ichida, muayyan soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratgan, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilgan kishining tafakkuri sermahsul va samarali sanaladi.

Demak, muayyan vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan ish ko'lami va sifati tafakkur mustaqilligining o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Zero, tafakkur mustaqilligiga erishish, ya'ni mustaqil fikr sohiblarini tarbiyalash va shakllantirish bugungi milliy taraqqiyotning muhim ma'naviy omillaridan biri hisoblanadi.


Zamonaviy dunyo bugungi kunda uchta global muammo bilan shug'ullanadi: insoniyatning sivilizatsiya sifatida saqlanib qolishi, insonni asrab-avaylash hamda uni rivojlantirish va tarbiyalash. Bashariyat yangi asrga qadam qo'yishi bilan zamon talablari, odamlarning yashash tarzi, shart-sharoitlari, vaqt tushunchasi bo'yicha qarashlari, ularni qurshab turgan axborot hududi yangi bosqichga chiqdi. Insoniyat atrofidagi hayot omillariga yanada talabchanlik, onglik va tafakkur bilan yondasha boshladi. Shu bilan birga, har soniyada o'zgarib borayotgan zamon talablari insoniyatdan mobillashish, intensivlashish va integratsiyalashish, axborotni qabul qilish hamda uni yashab turgan davrimiz tendensiyalariga mos va xos tarzda qayta ishlash malakalarini taqozo etmoqda.

Ogohlik, daxldorlik, o'zlikni anglash, g'oyaviy kurashchanlik har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurdir. Bugungi yoshlar turli makonlardan taralayotgan muayyan kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan har xil ma'no-mazmundagi g'oyaviy ta'sirlar girdobida yashaydi. Axborot asri, internet asri, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan ayni davrda bunday ta'sirlardan xoli bo'lish dolzarb muammodir. Shunday ekan, davr har bir yoshning fikri va sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkuri va mustahkam irodasiga ega bo'lishini taqozo etadi. G'oyaviy tahdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy ma'naviy meros xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur omillardandir.

- **Demak, hozirgi yoshlar nima yaxshi yoki nima yomon ekanligini ajrata bilishi darkor. Ya'ni, axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish insonning ong va tafakkur darajasiga bog'liq. Hozirgi paytda yoshlarning internetdan to'g'ri foydalanishiga erishmog'imiz lozim.**

Mamlakatimizda Internet tarmog'ini milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Agar biz yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz.

Bashariyat raqamlashuv, mobillashuv, sohalarga sun'iy intellektning



joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. Hozir dunyo yalpi ichki mahsulot(YIM)ning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir zamonda yashayapmiz. Biz bejiz sun'iy intellektni tilga olmadik, sababi u inson tafakkuri, ongi bilan raqobatga kirishmoqda. Insoniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hissiy intellekt – o'zimizdagi va boshqarlardagi his-tuyg'ularni tushunish va boshqarish qobiliyati. Tuyg'ular inson tajribasining asosiy jihati bo'lib, bizing munosabatlarimizni, qaror qabul qilish jarayonlarini va umumiy farovonligimizni shakllantiradi. Biroq sun'iy intellekt hissiyotlarga befarq, nozik insoniy his-tuyg'ularni tushunishga qodir emas.

Sun'iy intellekt tizimlari yanada murakkablashgani sayin avtonomiya va javobgarlik bilan bog'liq muammolar birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu tizimlarda hissiy tushuncha va subyektiv fikrlashning yetishmasligi kutilmagan holatlarga duchor bo'lganda, halokatli oqibatlar olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, javobgarlik masalasi jiddiy muammo tug'diradi. Agar sun'iy intellekt tizimi zararga olib keladigan qaror qabul qilsa, javobgarlikni kim o'z zimmasiga oladi? Odamlardan farqli o'laroq, mashinalar axloqiy vakolatga yoki mas'uliyat tuyg'usiga ega emas, bu ularning xatti-harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlikni murakkablashtiradi. Zero, texnologik taraqqiyotga intilishda sun'iy intellektning integratsiyasiga aqli va ehtiyotkor fikrlash bilan yondashish juda muhim. Sun'iy intellekt samaradorlikni oshirish va murakkab muammolarni hal qilish uchun ulkan salohiyatga ega bo'lsada, u odamlarni insonga aylantiradigan noyob fazilatlarining o'rnini bosa olmaydi.

Sun'iy intellektning xavf-xatarlari uning cheklovlarida, haqiqiy his-tuyg'ularning yo'qligida, inson xatti-harakatlarining murakkabli-

gini anglay olmaslikda va mashina mulohazalarining noto'g'riligidadir. Rivojlanayotgan sun'iy intellekt landshaftini kezarkanmiz, texnologiyaning afzalliklaridan foydalanish va insoniyatimizni belgilaydigan o'zgarishlar fazilatlarini asrab qolish o'rtasidagi muvozanatni saqlash juda muhim.

Yana bir muhim masala. XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar shu darajada ommalashdiki, bu, o'z navbatida, hatto inson tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkaza olish darajasiga chiqib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ko'p sonli odamlarni zombiga aylantirgan ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlasha olmaslik xastaligi yanada ko'proq zarar keltiradi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik yaxshilikka olib kelmasligi haqida juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Amerika pediatrlar akademiyasi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bolalar va o'smirlar sog'lig'ida salbiy oqibatlar olib kelishi haqida ogohlantiradi. Biroq barcha yoshdagi katta kishilar uchun ham aynan shunday xavf mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kuniga ikki soatdan ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazuvchi o'smirlar internetga 30 daqiqadan kam vaqt sarflovchi tengdoshlariga qaraganda yolg'izlikdan ikki barobar ko'p aziyat chekishar ekan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, inson axborot iste'molchisi sifatida har qanday zararli kontentlar, buzg'unchi, yot g'oyalarga o'z tafakkuri orqali qarshi tura olishi lozim.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.

AYOL VA JAMIYAT

Ayolning oilada halovati bo'lsa, kasb-korida ham unum bo'ladi. Oramizda oiladagi vazifalarini uddalab, jamiyat ravnaqi yo'li-da ham xizmat olib borayotgan oqila, shijoatli opa-singillarimiz ko'pchilikni tashkil etadi.



BAXTNING SUVRATI

Uychi tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Xotira Jaloldinova haqida ham ana shunday ijobiy fikrlarni bildirish mumkin.

Xotira oilada yaxshi beka, uddaburon kelin, mehribon ona bo'lish bilan birga, tajribali xodimadir. Qahramonimiz 2020-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, ilk xizmat faoliyatini Kosonsoy tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limida boshladi. 2023-yildan beri egallab turgan lavozimida tuman hokimligi xotin-qizlar bo'limi bilan hamkorlikda 735 nafar xotin-qiz qayta kasb-hunarga o'qitilishi, 3800 nafardan ortiqrog'ining bandligi ta'minlanishi, 135 nafariga subsidiya asosida kredit ajratilishida ko'maklashdi. Shuningdek, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizga himoya orderi berilib, natijada 115 ta oila yarashtirildi. Qaynonasidan jabr ko'rgan, eri tomonidan tazyiqqa uchragan ayollar bilan suhbatlarda Xotiraning hayotiy tajribaga ega otinoyilar, kayvoni onaxonlar bilan hamkorlikda ish tashkil etayotgani yaxshi natija bermoqda. Tumanning oilaviy yarashtirish komissiyasi a'zolari ham uning yordamiga tayanadi. Bundan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish vaqt, bilim va tajriba, sabr-toqat va mehnat talab etadi. Bunda lavhamiz qahramonini qo'llab-quvvatlayotgan yaqinlari, turmush o'rtog'i va qaynота-qaynonasining ham alohida hissasi bor. Xotiraning turmush o'rtog'i katta leytenant Murodjon Jaloldinov – Yangiqo'rg'on tumani IIB Huquqbuzarliklar

profilaktikasini muvofiqlashtirish bo'linmasi tayanch punktlari profilaktika inspektori.

– Ba'zan ishdan kech kelishga, ba'zan esa barvaqt ketishga to'g'ri keladi, – deydi Xotira. – Muslimaxon qizimiz endi ikki yoshdan o'tdi. Qaynonam qizim kichkinaligidayoq unga qarashni zimmasiga olgan. Katta oilaga kelin bo'lganman, uy yumushlarida, farzand tarbiyasida ham menga yaqindan yordam berayotgan qaynота-qaynonamdan minnatdorman.

Xotira oiladagi vazifalarini ham unutilib qo'ymaydi. Dam olish kunlarida pazanda, epchil va shirinso'z kelin sifatida xizmatlarni do'ndiradi, desak, mubolag'a emas. Hovlini ham saranjom-sarishta qilishga ulguradi.

– Xonim, chuchvara, manti kabi tansiq taomlarni pishirishda, mazali salat deysizmi, mevali, murabboli tortlar tayyorlashda meni qizimning oldiga tushadigani yo'q, – deya tilidan bol tomadi Vasilaxon opaning.

Murodjon ham taqdiridan xursand. Er-xotinning bitta sohada faoliyat olib borishi o'zaro tushunishi, bir-biriga yaqindan ko'mak berishida muhim omil bo'lmoqda. Ishdagi charchoqlar ham oilaviy ahillik, hamjihatlik va yana shiringina qizaloqning erkaklari tufayli unutiladi.

Haqiqiy baxt deganlari shu bo'lsa kerak...

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA, o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

YUKSAK MARRALARNI KO'ZLAB

Safdor Oybek Qo'ziboyev iqtidorli yoshlardan biri. U viloyat IIB axborot xizmatida kichik mutaxassis bo'lib xizmat qiladi.



Oybek bolaligidanoq texnikaga o'ch edi. Avvaliga o'yinchoq mashinalarni qo'lidan qo'ymagan bo'lsa, maktab davrida elektron texnika jon-dili edi. Uydagi radio, magnitafon yo bo'lmasa televizor buzilib qolgudek bo'lsa, darrov «operatsiya»ni boshlardi...

Shu bois Buxoro avtomobil va yo'llar kollejini tugatgan Oybek hech ikkilanmay, «Istiqlol» teleradiokompaniyasiga bordi. Uch oy sinov sharti bilan operator-montajchi sifatida ishga qabul qilingan yosh xodim bu yerda ancha mahoratini oshirdi, montaj ishlarini puxta o'rgandi. Biroq ota kasbiga bo'lgan qiziqishi ustunlik qildi. Otasi Tolib aka uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilib, pensiyaga chiqqan. Ichki ishlar organlari tizimida matbuot xizmati tashkil etilib, yosh, ommaviy axborot vositalarida ishlagan texnik xodimlar o'rtasida tanlov o'tkazilganda, barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan lavhamiz qahramonini viloyat IIB YHXB Matbuot guruhi kichik inspektori lavozimiga qabul qilishdi.

Safdor Oybek Qo'ziboyev besh yildirki, egallab turgan lavozimida samarali xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, kelgusida sohaning bilimdoni bo'lish maqsadida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institutining sirtqi bo'limida tahsil olmoqda. Ayni paytda to'rtinchi bosqich talabasi.

– Kasb sirlarini o'zlashtirishda «ustoz-shogird» an'analari nihoyatda muhim, – deydi lavhamiz qahramoni. Podpolkovnik Shuhrat Jalolov, mayor Quvvat Yarashov, kapitan Ulug'bek Shukurlayev doimo o'z maslahat va tavsiyalarini berib kelishadi. Ustozlarning qimmatli o'g'itlariga amal qilib, kam bo'lmadim, ozmi-ko'pmi yutuqlarga erishdim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, vazirlik hamda idoralar hamkorligida ijodkorlar o'rtasida o'tkazilgan Respublika ko'rik-tanlovining «Eng yaxshi vatanparvarlik ruhida videorolik» yo'nalishi bo'yicha viloyat bosqichida birinchi o'rinni egalladi, respublika bosqichida esa nominatsiya g'olibi bo'ldi. IIV tomonidan o'tkazilgan «Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni targ'ib etuvchi videoroliklar» ko'rik-tanlovida esa faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Hayotda inson yuksak marralarni ko'zlab astoydil mehnat qilsa, albatta unga yetishadi. Shunday ekan, tinib-tinchimas bu xodimga ona Vatan osoyishtaligi yo'lidagi mashaqqatli faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz!

Mirzoqul AHADOV, o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

QO'SHSAHIFADA

ENG FAOL XODIMA

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini yanada oshirish, ularning faolligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasi o'laroq, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlar ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishyapti. Xususan, «Itibar – 2024» tanlovining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida Qonliko'l tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Lazzat Yusupova «Yilning eng faol ichki ishlar xodimasi» nominatsiyasi g'olibligiga munosib deb topildi.

Lazzat Yusupova ilk xizmat faoliyatini 2022-yili Bo'zatov tumani IIB JXX HPB Voyaga yet-

maganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi lavozimida boshlagan. O'tgan yil fevral oyidan boshlab Qonliko'l tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

Profilaktik ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgani tufayli o'tgan yili tuman hududida xotin-qizlar o'rtasida jinoyat sodir bo'lmadi. Yil davomida «xonadonbay» o'rganishlar davomida 53 nafar xotin-qizning muammosi ijobiy hal etildi. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan 128 nafar ayolga himoya orderi rasmiylashtirilib, psixologik, ijtimoiy yordam berildi.



HAMKORLIK BESAMAR KETMAYPTI

Nukus shahridagi «Guzar» makon fuqarolar yig'inidagi 1056 xonadonda 4 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu yerda tinchlik-osoyishtalikni asrash, aholi muammolarini hal etishda mahalla yettiligining hamkorligi o'z samarasini bermoqda.

Darhaqiqat, bugun fuqarolar qandaydir muammoga duch kelsa, avvalo, o'zlari yashab kelayotgan mahalla mas'ullariga murojaat qilishadi. Albatta, bu boradagi ishlarni amalga oshirishda hududiy profilaktika inspektorlarining ham munosib hissasi borligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Ayni kunda «Guzar» makon fuqarolar yig'iniga birlashtirilgan profilaktika inspektori, kapitan Xojanazar Begjanovni shunday fidoyi xodimlar qatorida keltirish mumkin.

– Makon fuqarolar yig'inimizda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida manzilli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, o'tgan yili 42 nafar xotin-qiz va yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga o'qitildi. Yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan 5 nafar fuqaroga tikuv mashinasi va boshqa apparatlar topshirildi. Shuningdek, probatsiya hisobidagi 1 nafar shaxsning doimiy bandligi ta'minlandi, – deydi profilaktika inspektori.

Kapitan X.Begjanov MFYga birlashtirilganiga ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq uning sa'y-harakatlari tufayli hududda kriminogen vaziyat yaxshilanib, jinoyatchilik ko'rsatkichi kamayishiga erishildi. Shu boisdan ham aholi orasida munosib obro'ga ega.



ADASHGANLARGA IMKON BERIB

O'tgan yil dekabr oyi holatiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX Probatsiya bo'limi nazoratida bo'lgan 3273 nafar shaxs probatsiya hisobidan chiqarilgan. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan 390 nafar shaxs bilan profilaktik suhbat olib borilib, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, sog'lig'ini tiklash, kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori ijrosi yuzasidan ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab, probatsiya hisobiga olingan 27 nafar mahkumga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketlari ajratildi. Hozirgi kunda ular tadbirkorlik, hunarmandchilik, me'morchilik yo'nalishlari bo'yicha faoliyat yuritib kelmoqda.

Nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha shahar-tumanlarda o'tgan yil mobaynida 180 marotaba «Ishga marha-

mat» tadbirlari tashkil etilib, 400 kishi ishga joylashtirilgan. Bundan tashqari, 204 marta sayyor sudlar o'tkazilib, sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarib, mehnatga halol munosabatda bo'lgan 1173 nafar shaxs muddatidan oldin shartli ravishda ozod etilgan. Aksincha, sud hukmini buzib, jazodan qasddan bo'yin tovlab yurgan 253 nafar shaxsning o'talmay qolgan muddati og'irroq jazo turiga almashtirilgan.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

OSOYISHTALIK YO'LIDA



Qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kod.



Hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilash, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali ta'minlash maqsadida joylarda «Dolzarb 50 kun» tadbiri

o'tkazildi. Tadbir doirasida Qoraqalpoq'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda respublikani jinoyatchilikdan xoli hu-

dudga aylantirish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, yo'l-transport hodisalarining oldini olish yuzasidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

DALILLAR «TIL»GA KIRGANDA...

Qoraqalpoq'iston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazi xodimlari tomonidan o'tgan yili 5920 marta tezkor-qidiruv va tergov, ekspertiza o'tkazish harakatlari olib borilgan. Buning natijasida 434 ta jinoyat yuz tuzilishi bo'yicha foto va video suratlar orqali ochildi.

Markaz xodimlari tomonidan texnik imkoniyatlardan keng foydalangan holda, shahar-tuman IIBlarda yangidan

muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

– Hozirgi kunda soha xodimlari 13 turdagi an'anaviy va maxsus ekspertizani mustaqil o'tkazish uchun ruxsatnomalarga ega. Shuningdek, kimyoviy, ballistik va daktiskopik laboratoriyalar yetarli darajada jihozlangan bo'lib, ulardan xizmat davomida samarali foydalanib kelinmoqda, – deydi IIV Ekspert-kriminalistika markazi boshlig'i, podpolkovnik Mubarek Nizamatdinov.

Qoraqalpoq'iston Respublikasi IIV EKM hamda shahar-tuman IIB EKGLari xodimlarining malakasini oshirish, ularni zaruriy metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash ishlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.



profilaktik hisobga olingan, uzoq muddatga chiqib ketayotgan va yashab manzillariga qaytib kelgan shaxslarning qo'l-barmoq izlarini tizim bazasiga kiritib borish ishlari

DOIMY NAZORATDA



Keyingi paytlarda Mo'ynoq tumani respublikamizdagi xorijiy sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan hududlardan biriga aylanib ulgurdi. Shu bois ham hududda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida fuqarolar va sayyohlarning o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishini nazorat qilish har qachongidan muhim hisoblanadi. Shuningdek, tumanga kelib-ketuvchi xorijlik fuqarolar ro'yxatini shakllantirib borish zarur omillardan biridir.

O'tgan yil davomida tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi tomonidan 5082 nafar fuqaroga ID-kartalar rasmiylashtirilib, o'z egalari-

ga topshirilgan. Shuningdek, 1126 nafar fuqaroga xorijga chiqish biometrik pasportlari berilgan. Bundan tashqari, 998 nafar fuqaro doimiy, 172 nafar fuqaro vaqtinchalik ro'yxatga olingan bo'lsa, xorij davlatlaridan kelgan 283 nafar fuqaro vaqtincha hisobga qo'yilgan.

Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi xodimlari hududiy profilaktika inspektorlari bilan birgalikda mehmonxona, uy-mehmonxona, sanatoriy va hostellarda muntazam ravishda tekshirish ishlarini olib borib, ularning «Ye-mehmon» elektron tizimga ulangani, kelgan mehmonlarning ushbu tizimga ro'yxatga olingani bo'yicha doimiy nazorat o'rnatishgan.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Azamat PIRNIYAZOV tayyorladi.

INSON QADRI ULUG'

Qadami qutlug' kelgan yil

Muzrabot tumani IIB JXX JTSG Vaqtincha saqlash hibsonasi katta nazoratchisi, safdor Nuriddin Zulfiqorov va uning oilasi uchun yangi 2025-yilning qadami qutlug' keldi. Sababi, ota-onasi, aka-ukalari bilan 4 xo'jalik bitta uyda yashab kelayotgan uning oilasi uchun «Yangi hayot» mahallasida viloyat IIB homiyligida barpo etilgan 2 sotixli yangi uy ajratildi.



Bayram arafasida Nuriddin Zulfiqorovning oilasi yangi uyga ko'chib o'tishdi. Bundan safdor xodimning ota-onasi, ayniqsa, turmush o'rtog'i Qurbonoy Yo'ldoshevaning boshi ko'kka yetdi.

— Buni sirayam kutmagandim, — deydi Qurbonoy. — Shunday shinam, sharoitlari ham yaxshi uyda yashash faqat orzu bo'lgan men uchun. Qaynota-qaynonamning uyida ham 3 ovsin ahil-inoq bo'lib yashadik. Endi esa o'zimizning uyimiz bor. Bundan yaqinlarimiz ham juda xursand. Turmush o'rtog'imning shunday kasb egasi ekanligidan faxrlanaman.

Asli muzrabotlik Nuriddin Zulfiqorov ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini yuritayotganiga ham 14 yil bo'ldi. Ilk xizmat faoliyatini Termiz shahar IIB 9-sonli tergov hibsonasida nazoratchi vazifasida boshlagan.



O'z kasbini yaxshi ko'radi, barcha bilan xushmuomala bo'lishga harakat qiladi.

Xizmat faoliyatim davomida turli insonlarni ko'rdim, turfa holatlarga guvoh bo'ldim, — deydi safdor Nuriddin Zulfiqorov. — Hayotga qarashim o'zgardi va angladimki, qiyinchiliklar insonni toblar ekan. Bu dunyoda, u kim bo'lishidan qat'i nazar, yaxshi muomalada bo'lish kerak ekan. Chunki inson odamiyligi bilan azizdir. Yangi uylik bo'lganimiz men uchun ham ajoyib sovg'a bo'ldi. Biz kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlayotgani uchun davlatimiz rahbariga oilam nomidan minnatdorlik bildiraman.

Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

YONG'OG'I «PUCH» CHIQQI

Bugun haydovchilarning harakatlanish tartib-qoidalariga bepisandligi tufayli sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining ayanchli oqibatlarini yuragimizga og'riq soladi. Oramizda spirtli ichimlik iste'mol qilib, avtomashina boshqarish xavfli ekanligini bila turib, shunday «qahramon»likka jazm qilayotganlar haqida nima deyish mumkin?!

Samarqand viloyati IIB JXX YHXB saf bo'linmalari yo'l-patrul xizmati batalyoni ikkinchi otryadi uchinchi safarbar guruhi komandiri, leytenant Bunyod Yazdonov Samarqand shahri Talabalar xiyoboni yaqinida tungi xizmat olib borayotgan vaqtida «Equinox» rusumli avtomashina bir tomonlama yo'ldan qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanib kelayotganini ko'radi. Haydovchining harakatlarini payqagan inspektor uni keyingi svetoforda to'xtatadi. Haydovchi D.A.ning hujjatlarini tekshirish jarayonida, u spirtli ichimlik iste'mol qilganlikda ham gumonlanadi. O'tkazilgan tekshiruv natijalari esa haydovchining mastlik holatida ekanligini isbotlaydi.

— Shu joyning o'zida haydovchi D.A.ga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirdim, — deydi leytenant Bunyod Yazdonov. — Avtomashina vaqtincha saqlash jarima maydonchasiga joylashtirildi. Haydovchi o'ziga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnomanini yo'q qilish va avtomashinasini jarima maydonidan chiqarib berish evaziga to'rt million so'm miqdoridagi pullarni pora sifatida taklif qildi.

Lekin huquqbuzarlikka qo'l urgan D.A. to'rt million so'm pullarni berayotgan vaqtida huquq-tartibot organlari tomonidan qo'lga olindi.



— O'g'lim 2021-yilda Toshkent shahrida xizmatni boshlagan, — deydi Ixtiyor Sidiqov. — Hozirda esa o'zi tug'ilib o'sgan Samarqand shahrida ishlayapti. Bunyodjonga ham ichki ishlar organlarida xizmat olib borish alohida mas'uliyat ekanligini doim ta'kidlayman. Yaqinda o'g'limning ish-xonasiga chaqirtirishdi. Uning rahbarlari halol va namunali xizmati uchun menga tashakkurnoma bildirishdi. Ochig'i, ko'nglimdan kechgan yoqimli hislarni ta'riflashga qiynalaman. Har bir ota uchun farzandining yaxshi ishlari orqasidan rahmat eshitishdan ortiq quvonch yo'q. Men o'g'lim bilan faxrlanaman, kelgusida ham sha'niga dog' tushirmay fidoyi bo'lib, halol mehnat qilishini xohlayman. Axir halollikda halovat, baraka bor.

Haqiqatan ham, halollikni kasb qilgan insonning hayotida halovat, chinakam baxt bo'ladi. Biroq oramizda D.A. singari jamiyatda belgilangan qonun-qoidalarini chetlab o'tib, qonundan qing'ir yo'llar bilan qutulib qolmoqchi bo'lganlar ham yo'q emas. Quvonarlisi, mas'uliyatli xizmatida hamisha to'g'rilikni qadrlovchi leytenant Bunyod Yazdonov singari xodimlarimiz bor ekan, ayrim «uddaburon» haydovchilarning yong'og'i «puch» chiqaveradi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



Молодежь — наше будущее

В нашей стране огромное внимание уделяется молодежи, всестороннему развитию юношей и девушек, поскольку будущее Узбекистана зависит от них.

— Глубоко верю в светлое будущее страны. Каждый из нас должен внести свой вклад в ее развитие. Говоря о будущем, твердо убежден, что оно зависит от нас, молодежи, — подчеркивает младший специалист системы «102» Центра оперативного реагирования Организационного управления УВД области рядовой Омаджон Тохиров.

Омаджон пришел в органы внутренних дел по зову сердца. Перед поступлением в ОВД, являясь студентом Андижанского государственного педагогического института, он перевелся на заочное от-



СТРЕМЛЕНИЕ ВПЕРЕД

деление. После прохождения первоначальной подготовки молодой человек службу начал инспектором первого отряда батальона патрульно-постовой службы.

Недавно молодого сотрудника назначили младшим специалистом системы «102». Его наставником стал рядовой Шухратбек Муталибов, имеющий богатый опыт.

— В будущем мечтаю стать офицером, — продолжил беседу рядовой О. Тохиров. — Призываю молодежь любить нашу прекрасную страну не на словах, а на деле, покоряя новые вершины, делая научные открытия, помогая нуждающимся, совершая добрые поступки!

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

По следам одного преступления

ДЕНЬГИ В МАШИНЕ — СОБЛАЗН ДЛЯ ЗЛОУМЫШЛЕННИКОВ

В декабре прошлого года в Гиждуванском районе были зафиксированы случаи кражи денег из салонов автомобилей.

Сотрудники уголовного розыска во взаимодействии с представителями иных отраслевых служб взяли под контроль автомобили, припаркованные у рынков и на улицах махаллей.

— Поступило сообщение о том, что в махалле имени Ф. Ходжаева из салона оставленного без присмотра автомобиля марки «Equinox» украдено 1,5 миллиона сумов. Мы незамедлительно выехали на место происшествия, — рассказывает оперуполномоченный группы уголовного розыска отдела внутренних дел № 3 районного ОВД старший лейтенант Сардор Сайфиддинов. — Установили, что аналогичная кража была совершена из автомобиля марки «Дамас», оставленного ранее у рынка. Изучили записи с камер видеонаблюдения. Подозрение

в совершении деяний пало на несовершеннолетнего А. С., уже известного своим незаконным промыслом. Предполагали, что в данный момент он может находиться в компьютерном клубе. Расчет оказался верным. Погруженный в игру воришка не заметил нашего приближения.

— Подозреваемый А. С. признался, что совершил оба преступления, — говорит следователь следственного отдела старший лейтенант Бехруз Хайдаров. — На украденные деньги он купил скутер... Вновь напоминаем автовладельцам: не оставляйте наличность и ценные вещи в машинах, будьте бдительны.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



Общественное обсуждение

БРАК ОСНОВЫВАЕТСЯ НА ДОВЕРИИ

Семья, созданная на лжи, обречена на развал, поскольку счастливый брак основывается на взаимном доверии.



Бехруз, находясь на заработках за границей, жил в гражданском браке с Шахрибону. Вернувшись в Узбекистан, он скрыл этот факт. Молодой человек познакомился с девушкой по имени Халима, завоевав ее сердце, послал к ней сватов...

Молодые создали семью. У них родилась пара очаровательных малышей.

В один из дней Халима узнала, что ее муж раньше жил с другой женщиной. Она была в гневе из-за того, что ее обманули. Забрав детей, Халима ушла к матери.

Родственники попытались примирить пару. Однако...

Злые языки начали судачить о Халиме. Бехруз приехал к дому тещи и устроил скандал. Он заявил, что скучает по детям и хочет их забрать. Под натиском

настойчивых требований Бехруза, разозлившись, Халима выпалила: «Ты не отец детей». Бехруз, схватив нож, лежавший на столе, с яростью напал на Халиму.

Несмотря на усилия медиков, пострадавшая скончалась от потери крови. Погублена жизнь человека...

В махалле Сурхон сохили города Термеза состоялось общественное обсуждение данного факта. В нем приняли участие начальник областного УВД полковник Тимур Исмаилов, хоким города, инспекторы профилактики, махаллинцы. На собрании проанализированы факторы, приведшие к трагедии.

Феруза РАХМОНКУЛОВА,
соб. корр.

Сурхандарьинская область.

FAXRIYLAR HAYOTI – YOSHLARGA IBRAT

TINGHLIK NE'MATIDAN ELLAR SHOD BO'LSA,

ma'rifat ziyosidan dillar xushlanar

– deydi iste'fodagi polkovnik Musaxon Oppoqov

Lavhamiz qahramoni suyagi sohaviy xizmatlarda qotgan bo'lsa-da, ham huquq, ham gumanitar ilmlar bilimdoni, ajoyib inson, ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi polkovnik, bugungi kunda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Namangan viloyati bo'limining rahbari Musaxon Oppoqovdir.

Musaxon aka bilan bundan yigirma ikki yillar oldin Namangan viloyati IIBga xizmat safariga boranimizda, kengaytirilgan yig'ilishda tanishganman.



Taqdirni qarangi, keyinchalik bir sohaviy xizmatda ishlagan davrimizda Musaxon Po'latovichning haqiqatan ham teran fikrli, dunyoqarashi keng, ziyoli, shijoatli, tashabbuskor, o'z kasbini sevadigan va yuklatilgan vazifaga masu'uliyat bilan yondashadigan rahbar ekanligiga yana bir karra amin bo'ldim.

Musaxon Oppoqov ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklarning oldin olish, Davlat avtomobil nazorati va Qo'riqlash xizmatlarida rahbar, Chust tuman IIBda boshliq lavozimlarida

fidoyilik bilan xizmat qilib, polkovnik unvonida pensiyaga chiqdi. Shundan so'ng ham tinch o'tirgani yo'q. Boy tajribaga, yetarli bilimga egaligi tufayli u kishiga «Mahalla» jamg'armasi Respublika boshqaruvining Namangan viloyati bo'limi rahbari, bir vaqtning o'zida viloyat hokimining o'rinbosari vazifalari yuklatildi. Mazkur lavozimda ham shijoat bilan ishladi. Bor kuch, bilim va tajribasini ishga solib, mahallalar faoliyatini yanada takomillashirishga bosh-qosh bo'ldi.

Musaxon Oppoqov ma'rifatparvar, ziyoli inson. Bo'sh qoldi deguncha qo'lga gazeta-jurnal yoki kitob oladi. Tinimsiz o'qib izlanadi.

– Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini topshirig'i asosida «Tamaddun madaniyat va ma'rifat» mavzusida bo'lib o'tayotgan «Ma'rifat karvoni» ilmiy-ma'rifiy va madaniy targ'ibot tadbirlarini tashkil etayapmiz. Shu maqsadda ma'naviyatchi, tarixchi olimlar, shoir va yozuvchilar hamda ziyolilar ishtirokida shahar va tumanlardagi mahalla, maktab va barcha ta'lim muassasalarida uchrashuvlar o'tkazayapmiz, – deydi iste'fodagi polkovnik M.Oppoqov.

Musaxon aka ichki ishlar organlari xodimlari bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlarda tez-tez qatnashib turadi. Xodimlarga qarata «Yigitlar hozirgi davr axborot texnologiyalari asri. Hammaning qo'lida gadjetlar. Shuning uchun har bir xodim eng avvalo muomala bobida juda hushyor bo'lishi kerak. Fidoyilik bilan xizmat qilinglar», deb tartibga chaqiradi doim.

Ma'rifat ulashish, ziyo tarqatishdek xayrli va savobli ishni bajarishni uddalab kelayotgan qahramonimizdan bu xizmatlarning farqi qanday ekan deb so'raganimizda, u kishi «Tinchlik ne'matidan ellar shod bo'lsa, ma'rifat ziyosidan dillar xushlanar», deydi faxr tuyg'usi bilan.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

KASB FIDOYISI

OTA ORZUSINI USHALTIRGAN QIZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olgan Nodiraning taqdiriga ichki ishlar organi xodimlari bo'lish yozilgan ekan.



Otasi Saidinmurod aka oddiy haydovchi, onasi Rahima opa esa uzoq yillar sud tizimida ishlagan huquqshunos bo'lgan. Ular farzandlari ichki ishlar organi xodimi bo'lishini, egniga formani viqor bilan kiyib yurishini niyat qilishardi. Lekin o'g'li yo'q, uch nafar qizi bor. Dilbandlari orasida ichki ishlar organi xodimi chiqishini juda-juda istagan ota katta qizi Nodiraning bo'y-basti osoyishtalik posboni bo'lishga mos kelganligi sabab, uni hujjatlarini ichki ishlar organlariga topshirishga undaydi.

Buni qaranki, Nodira sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi va xodima bo'lish baxtiga muassar bo'ldi. Bundan, eng avvalo, otasi cheksiz xursand edi. Qizi uning orzusini ushaltirganida ko'zida quvonch yoshlari qalqdi va uzoq duo qilib, farzandining kelgusidagi ishlariga omad tiladi. Ota duosini olgan farzand esa hech qachon kam bo'lmaydi.

Dastlab, jinoyat qidiruv bo'limida ish o'rganuvchi sifatida soha sir-asrorlarini o'rgangan Nodira Saitxo'jayeva 2002-yilda Toshkent shahar IIBB O'quv markazida tahsil oldi. Keyin u xizmatni IIBB vaqtincha ushlab turish hibsonasida davom ettirdi.

Faoliyati mobaynida ekspert-kriminalistika yo'nalishiga qiziqib

qolgani bois ustoz, podpolkovnik Temur Jumaniyozovdan ekspert-kriminalistika sohasiga oid sir-asrorlarni o'rganib, ushbu yo'nalishda xizmat qila boshladi. Podpolkovnik Nodira Saitxo'jayeva bir necha yillik xizmat faoliyati davomida tergov-tezkor guruhi tarkibida ko'p marotaba voqea joyiga chiqib, jinoyatlarning «issiq izida» ochilishida ham o'z hissasini qo'shdi.

Lavhamiz qahramoni Chilonzor tumani IIOFMB HPB xotinqizlar masalari bo'yicha katta inspektori, Shayxontohur tumani IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi inspektor-psixologi lavozimida ham muayyan ishlarni amalga oshirdi.

Hozirda Shayxontohur tumani IIOFMB Ekspert-kriminalistika bo'limi katta eksperti Nodira Saitxo'jayevaning hali hanuz mahalla fuqarolar yig'ini raislari hamda ta'lim muassasalari rahbarlari bilan hamkorligi uzilgani yo'q.

– Mening 2024-yildagi xizmatdagi yutuqlarimni ko'rish ota-onamga ko'rish nasib etmagan bo'lsa-da, otamning orzusini ushaltirdim. O'tgan yili podpolkovnik bo'ldim. Kelgusida bundan ham sidqidildan ximat qilib, ota-onamga munosib farzandligimni oqlayman, – deydi u.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

UCHRASHUV JOYI – HARBIY QISM

Zarafshon shahar IIB otalig'idagi 11-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7551 harbiy qismda «Ochiq eshiklar kuni» tashkil etildi.

Tadbir jarayonida o'quvchilar Vatan himoyachilari samarali xizmat qilishi va mazmunli dam olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, harbiy qism kutubxonasi, sport zali, o'quv xonalari, yotoqxonalar, Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

– Vatan himoyachilari safida harbiy ayollarni ko'rib, men ham ular kabi shijoatli, matonatli bo'lishni niyat



qildim, – deydi maktabning 10-sinf o'quvchisi Marjona Olimova.

Tadbirida ishtirokchilarga qurolasla va maxsus texnikalar ko'r-

gazmalari namoyish etilib, ulardan foydalanish usullari tushuntirildi. Faxriy qorovul, askarlarning qo'l jangi tayyorgarligi hamda Kinologiya xizmati xodimlarining ko'rgazmali chiqishlari barchada katta taassurot qoldirdi.

Zarafshon shahar IIB boshlig'i va yoshlar bilan uchrashuvdagi o'zaro muloqot chog'ida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi, kelgusidagi rejalari, tanlayotgan kasb va mutaxassisliklari haqida gapirib berishdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Урок духовности и просвещения

В РИТМЕ ДИНАМИЧНОГО ВРЕМЕНИ

Современный мир стремительно меняется. Новые технологии трансформируют способы нашего общения, делают жизнь динамичной, предоставляя доступ к огромному объему информации и услуг в режиме реального времени. При этом цифровая эпоха способствует осознанию ценности духовного развития, расширяя границы познания, она создает условия для конструктивного диалога.



В республике осуществляются меры по широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий. Реализуются свыше 220 приоритетных проектов, предусматривающих совершенствование системы электронного правительства, дальнейшее развитие отечественного рынка программных продуктов, организацию IT-парков.

Для ускоренного развития информационно-коммуникационной индустрии принята Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», направленная на цифровую трансформацию регионов и отраслей. Повышен уровень подключения населенных пунктов к сети интернет с 78 до 95 процентов. Внедрено свыше 280 систем и программных продуктов по автоматизации процессов управления, производства и логистики на предприятиях реального сектора экономики.

В соответствии с «Дорожной картой» в области развития электронного правительства обеспечивается размещение на Портале открытых данных сведений о госзакупках, регистрации патентов, использовании земельных ресурсов и других общедоступных статистических сведений. Запущена платформа data.egov.uz, предоставляющая возможность получения данных госорганов.

В целях создания дополнительных удобств для населения и субъектов предпринимательства реализуется Программа мер по дальнейшему совершенствованию оказания электронных государственных услуг. Сегодня на ЕПИГУ (my.gov.uz) оказываются

700 видов услуг, количество зарегистрированных пользователей достигло 10 миллионов.

В министерствах и ведомствах, органах исполнительной власти учреждена должность заместителя руководителя по цифровизации (Chief Digital Officer), задача которого организация реализации ведомственных программ цифровой трансформации.

В области развития цифрового образования внедрен механизм компенсации до 50 процентов расходов граждан на получение международных IT-сертификатов по системному администрированию, управлению базами данных и облачными платформами. В районах и городах создаются специализированные школы с углубленным изучением информатики. В ближайшее время их количество будет превышать 200.

Реализуются целевые программы научно-исследовательских и инновационных проектов по направлениям цифровой экономики. При этом особое внимание уделяется фундаментальным и прикладным разработкам – применению на практике возможностей технологий виртуальной и дополненной реальности, машинного обучения, анализа больших данных, облачного вычисления. В центре внимания – коммерциализация перспективных стартапов.

Важным событием в рассматриваемом аспекте явилось утверждение Постановлением Президента от 14 октября 2024 года Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года. Согласно

документу начато осуществление пилотных проектов в:

сельском хозяйстве – для мониторинга состояния почвы на



основе данных дистанционного зондирования земли;

банковско-финансовой сфере – для повышения эффективности мониторинга за деятельностью коммерческих банков (SubTech и RegTech), предотвращения мошенничества, оценки платежеспособности пользователей, осуществления удаленной биометрической идентификации (Face-ID);

налоговой сфере – для анализа налоговых поступлений, противодействия теневой экономике, прогнозирования подозрительных финансовых операций;

энергетике – для прогнозирования выработки и потребления энергоресурсов, оптимизации работы оборудования, развития

использования возобновляемых источников энергии; и др.

Стратегией предусмотрена подготовка специалистов в области искусственного интеллекта. В Ташкентском университете информационных технологий, Национальном университете Узбекистана, Ташкентском государственном техническом университете, Самаркандском государственном университете начата поэтапная подготовка таких кадров. В Правоохранительной академии Республики Узбекистан, Академии МВД и других вузах внедряются курсы по прикладному применению технологий искусственного интеллекта. Создан Научно-исследовательский институт развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. Фондом «Эл-юрт умиди» в ведущие зарубежные центры направлены молодые специалисты для обучения по направлению «Искусственный интеллект».

Для повышения знаний и навыков населения Стратегией предусмотрены меры по: внедрению дистанционных и онлайн-образовательных технологий, онлайн-курсов; проведению

мероприятий (форумов, семинаров, конференций и др.), а также конкурсов (хакатоны, соревнования и т.д.); повышению заинтересованности работодателей в обеспечении населения знаниями и навыками использования искусственного интеллекта.

В числе целевых показателей, которые должны быть достигнуты до 2030 года, – вхождение Узбекистана в топ-50 государств Индекса готовности правительства к искусственному интеллекту (Government AI Readiness Index), обеспечивая при этом гармоничное развитие технологий и традиционных ценностей.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

■ Хорезмская область



ПОДАРОК КИНОЛОГАМ

В мероприятии по случаю сдачи в эксплуатацию отремонтированных корпусов кинологического подразделения УООП Службы общественной безопасности УВД области приняли участие личный состав и ветераны сферы. Были представлены достижения сотрудников, планы на будущее, продемонстрированы показательные выступления с участием служебных собак.

– Помещения административного здания оборудованы необходимой мебелью, компьютерной техникой, средствами связи, – говорит начальник подразделения подполковник Расул Полвонов.
– Во вспомогательных корпусах

созданы условия для содержания, ухода, лечения служебных собак. Также оборудовано отдельное здание для оказания платных услуг по уходу за собаками, принадлежащими населению.

Соб. корр.



■ Джизакская область

ОСТОРОЖНО: КИБЕРМОШЕННИКИ!

Получив SMS-уведомление о снятии большой суммы с пластиковой карты, житель махалли Навбахор Бахмальского района Х. Б. обратился в органы внутренних дел.



Сотрудники отделения кибербезопасности УВД области провели оперативно-технические мероприятия, в результате которых выяснилось, что данное преступление совершено студентами вуза, проживающими в городе Бухаре. У подозреваемых Д. К. и М. А. были

изъяты 2 ноутбука, 3 мобильных телефона и 11 банковских пластиковых карт. В ходе расследования выяснилось, что эти лица, пообещав изготовить водительские удостоверения, присвоили деньги десятков граждан. Мошенники осуществляли деятельность, используя социальные сети.

В результате работы подразделения были задержаны жители Наманганской области З. Х. из махалли Бирлик Чустского района,



С. Д. из махалли Карнон этого же района и Ш. Ж. из махалли Урта-роровустон города Намангана. Они путем обмана сняли 4 миллиона 665 тысяч сумов с банковской карты М. Б., проживающего в махалле Сугдиёна Шараф-Рашидовского района. Расследование установило, что члены преступной группы совершили аналогичные противоправные действия и в отношении других граждан.

В минувшем году наше подразделение раскрыло более 40 подобных преступлений и добилося взыскания ущерба в размере 2 миллиардов 21 миллиона сумов, причиненного физическим и юридическим лицам.

К сожалению, во всем мире, включая нашу страну, число пострадавших от киберпреступлений продолжает расти. В этом контексте мы регулярно проводим информационно-пропагандистские мероприятия, направленные на повышение осведомленности населения о защите от киберпреступлений.

Маруф КАРШИБОВЕВ,
старший лейтенант.

■ Самаркандская область

ПОМОГАЕМ, ЗАЩИЩАЕМ

Новый год – время праздничных мероприятий, но для сотрудников дежурных частей подразделений ОВД это также период усиленной работы.



– В новогоднюю ночь на номер экстренной службы поступило около 50 звонков, – рассказал начальник смены дежурной части УВД области майор Ойбек Тияявов. – Большое количество обращений зафиксировано из Самарканда. Следом идут Пастдаргомский и Пайарыкский районы. Наименьшее количество обращений из Кошрабадского, Нурабадского и Пахтачийского районов.

Сообщения нередко касаются конфликтов, вызванных алкогольным опьянением. Например, за несколько часов до наступления Нового года женщина сообщила, что ее сосед во дво-

ре угрожает детям. Нарушителя задержали.

Еще один инцидент произошел в Ургутском районе. В 19:21 поступил звонок от мужчины, который обнаружил пропажу мобильного телефона из припаркованного возле торгового центра автомобиля. Камеры видеонаблюдения помогли быстро найти злоумышленника – он воспользовался тем, что водитель забыл закрыть дверь машины.

– Делаем все возможное, чтобы помочь каждому, кто оказался в сложной ситуации, – заключил майор Тияявов.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

«NAFIM TEGSA DEYMAN»



Leytenant Matluba Sidiqova ichki ishlar organlarida faoliyatni boshlaganiga ko'p bo'lgani yo'q. U hozirda safimizdagi yosh, fidoyi xodimlardan biri.

Bugungi kunda Oltiariq tumani IIBda xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimida xizmat qilayotgan yosh va jonsarak bu qizni hamisha ayollarga

ko'maklashish maqsadida andamon yurganini ko'rasiz. – Xonadonlarni aylanib, ayollar bilan suhbatlashganda, turfa taqdirlarga ro'baro' kelamiz, – dey-

di lavhamiz qahramoni. – Masalan, o'tgan yilda olib borgan o'rganishlarimizda 714 ta oila-turmush doirasidagi nizoli holatlarni aniqladik. Ular o'z vaqtida muhokama etilib, 480 ta oiladagi notinchlikka barham berildi, 71 ta oila ajralib ketishdan saqlab qolindi. Jinoyat sodir etish ehtimoli bo'lgan 411 nafar xotin-qizlar bilan profilaktik suhbat o'tkazilib, muammolarini barvaqt aniqlashga harakat qildik. Aynan shu toifadagi ayollardan 100 nafarga yaqini ish bilan ta'minlandi.

Uning aytishicha, tuman-dagi mavjud 72 ta mahallada «Ogohlik – davr talabi», «Zo'ravonlikka qarshi kurashish – dolzarb masala»

«Firibgarlikdan ogoh bo'ling!», «Oila – muqaddas dargoh» kabi mavzularda profilaktik tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar muntazam olib borilmoqda. Muammoli va qiyin vaziyatga tushib qolgan ayollar ishtirokida bir necha marotaba psixologik trening ham tashkil etildi.

Yil boshidan oilaviy nizolar sababli ajralish yoqasiga kelib qolgan, himoya orderi rasmiylashtirilgan yoki shar'iy nikohda yashovchi oilalar ro'yxati shakllantirilib, mas'ullar tayinlandi. Bundan tashqari, axloq-odob doirasida huquqbuzarlik sodir etganligi uchun hisobda turgan 25 nafar xotin-qizga tarbiyachi-murabbiy birlashtirilib, ta'sirchan profilaktik

ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada tumanda xotin-qizlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar salmog'i sezilarli kamaydi. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish borasida «Oltiariq tajribasi» yaratildi.

– Bolaligimdan forma kiygan ayollarga havas qilib, shu kasbni tanlaganman. – Kimgadir yordamim tegsa, minnatdor bo'lib, meni duo qiladi. Odamlarga kerakligingni, xalqqa nafing tegayotganini his etib ishlashning zavqi boshqacha bo'larkan, – deydi leytenant Matluba Sidiqova. – Bu borada ustoz va murabbiylarning yordamini doim his qilib turaman.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

SO'NGGI PUSHAYMON – O'ZINGGA DUSHMAN

Tanishganlaridan ko'p o'tmay, ikki yosh – Ilyos (ism-shariflar o'zgartirildi) va Muhayyo bir-biriga ko'ngil qo'ydi. Ammo, nima bo'ldi-yu, ularning orasiga sovuqchilik tushdi. Muhabbat nafratga aylanib, ikkisi ham bir-birini haqoratladilar. Boz ustiga, oraga Ilyosning ukasi Doston ham qo'shilib, Muhayyo va uning yaqinlarining shaxsiyatiga tegdi. Bunga chiday olmagan qiz va uning qarindoshlari Ilyos Tohirov va uning ukasiga chora ko'rilishini so'rab ichki ishlar organiga ariza bilan murojaat qildi.



Voqea tafsilotlarini o'rgangan profilaktika katta inspektori, katta leytenant Islomjon Mirahmedov tergovga qadar tekshiruv ishlarini olib borib, barcha ishtirokchilarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlarini borligi sababli, ularning qilmishiga qonuniy baho berish uchun to'plangan hujjatlarni sudga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Shu bois ularning hammasini xizmat xonasiga chaqirib, qaror bilan tanishtiradi. Shunda Ilyos agarda sud tomonidan ma'muriy qamoq jazosi tayinlanadigan bo'lsa, savdo faoliyati bilan bog'liq ishlari to'xtab qolishini aytib, ukasi Dostonni ayblov ishidan olib tashlashni so'raydi. Va bu «xizmat» evaziga osoyishtalik posboniga 300 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi.

Bu harakat jinoyat ekanini tushuntirishlar esa zo'ye ketadi.

Mazkur holat bo'yicha o'tkazilgan tezkor tadbir davomida Ilyos Tohirov katta leytenant I. Mirahmedovga xizmat xonasida pora berayotgan paytda ushlandi.

Yurtga sadoqat va halollik bilan xizmat qilishni oliy maqsadi deb bilgan osoyishtalik posboni moddiy manfaat uchun kasbi va qasamyodiga xiyonat qilmadi. Fuqaro esa korrupsiya atalmish qing'ir ishga qo'l urib, yaqinlari oldida uyatdan boshi xam, qilmishidan pushaymon bo'ldi. Shuni aytsalar kerak-da, «So'nggi pushaymon – o'zingga dushman» deb...

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

KARANTIN XIZMATI



LABORATORIYA XULOSASIGA ASOSAN

Qashqadaryo viloyati IIB PPX va JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'linmasi xodimlari mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda oziq-ovqat bozorlarida veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida muayyan tadbirlarni amalga oshirishmoqda.

O'tgan yili «Umakay», «Mingchinor» va «Shirinbuloq» YPX maskanlarida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda sifatsiz va iste'molga yaroqsiz go'sht va go'sht mahsulotlari kirib kelishi hamda chiqib ketishining oldini olishga qaratilgan maxsus tadbirlar davrida 31 ta holat aniqlanib, 13909 kg go'sht va go'sht mahsulotlari viloyat Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi mikrobiologiya va veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi xulosasiga asosan iste'molga yaroqsiz deb topilib, tegishli tartibda yo'q qilindi.

Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab, uy hayvonlarida uchraydigan mavsumiy va doimiy kasalliklarga barham berish maqsadida o'tgan davrda uy hayvonlarida uchraydigan xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, go'sht va sut mahsulotlari yetkazib berish va sotish chog'ida veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etish bo'yicha ham muntazam ravishda profilaktik targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazildi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

ИИБ Фахрийлар кенгаши ҳамда Тошкент вилояти ИИББ раҳбарияти, шахсий таркиби Чиноз тумани ИИБ бошлиғи, полковник Отабек Фанибековга отаси, истеъфодаги подполковник

Ғанибек Юлдашевнинг вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI



Abduhamid OLLAYOROV
1982-yil 25-fevralda Samarqand viloyatining Nurobod tumanida ziyoli oilasida tavallud topgan.

2000-yilda Qorovul qo'shnilariga qarashli poytaxtimizda joylashgan 7534-harbiy qismda xizmat qilgan. 2001-yil noyabr oyidan shu yerning o'zida shartnoma asosida harbiy xizmatni boshlagan. Hozirda 1-toifali nazoratchi, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha katta yo'riqchi lavozimida xizmat qilmoqda.

VATAN

Tog'laring bor ko'klarga tutash,
Har so'zingga berar aks sado.
Sevgim garchi misoli otash,
Garchi yurak limmo-lim nido,
Men esa shivirlab aytaman,
Seni jondan sevaman, Vatani!

Soylaring bor suvida shiddat,
To'lqinlari qo'shiqdek oqar.
Senga bo'lgan sevgim qay muddat,
Qo'shilishib aytsam xush yoqar,
Lekin men shivirlab aytaman,
Seni jondan sevaman, Vatani!

SEN BORSANKI

Sen borsanki bilmaydi daxl,
Vatanimning yer-u osmoni.
Sen o'zing-ku avval-u oxir,
Buyuk xalqning sodiq posboni.

Sen borsanki yurtda omonlik,
Sarhadlarda tinchlik hukmron.
Qay bir dilda qo'psa yomonlik,
Qarshisida turguvchi posbon.

Sen borsanki osmon musaffo,
Yurtim barcha xatardan xoli.
Sharafarga to'lgin doimo,
Kulsin mudom baxt-u iqboling.



MAHORAT BOR, YUTUQLAR BISYOR

Yangiariq tumanidagi «Oqmaschit» mahallasida joylashgan Mehriniso Otabekovaning xonadonida o'g'irlik jinoyati sodir etildi. Noma'lum kimsa uy yotoqxonasidagi shkaf ichidan 500 AQSH dollarini o'g'irlab ketgan. Hodisa joyiga yetib kelgan tuman IIB tergov-tezkor guruhi tarkibida bo'lgan katta ekspert, katta leytenant Maqsadbek Ibragimov hodisa joyida qoldirilgan qo'l-barmoq izlaridan 7 ta yaroqli namunalari olib, uni viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markaziga yubordi. Jinoyatda gumon qilingan shaxslar bilan dastlabki surishtiruv ishlari natijasida avvaliga aybiga iqror bo'lmasdan turli bahonalarni o'ylab topib, suvdan quruq chiqmoqchi bo'lgan shaxs sinchkov ekspert tomonidan taqdim etilgan dalillardan so'ng aybiga iqror bo'lib, qilmishini tan olishga majbur bo'ldi.

IIV Akademiyasini tamomlagan lavhamiz qahramoni Yangiariq tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi eksperti lavozimida ilk xizmat faoliyatini boshlagan. Tanlagan kasbiga ishtiyoq bilan yondashgan bu yigit ustoz podpolkovnik Azamat Nurmetovning nasihatlariga, o'g'itlariga amal qildi. Kasb sir-asrorlarini qunt bilan o'rganishga intildi.

– Katta leytenant Maqsadbek Ibragimov g'ayrat-shijoatli yosh xodimlarimizdan biri, – deydi viloyat IIB EKM boshlig'i, mayor Olimboy Rajabov. – O'tgan yilda u ko'plab tergov harakatlarida va tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtirok etdi. Shuningdek, 101 ta ekspert-tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Sodir etilgan jinoyatlarga aloqador bo'lgan 80 ta yaroqli qo'l-barmoq izlarini aniqlab, 3 ta jinoyatni «issiq izi»da fosh etishda shaxsiy tashabbus ko'rsatgan. Yigirmadan ortiq jinoyatni ochishda faol ishtirok etgan.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilayotgan turli tadbirlar va ko'rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. O'tgan yili u «Eng yaxshi ekspert-kriminalist» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli



birinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, Buxoro shahrida o'tkazilgan respublika ko'rik-tanlovida Xorazm viloyati IIB EKM jamoasining faxrli 3-o'rinni egallashida ham uning munosib hissasi bor. Xullas, bilim va mahorat bor joyda yutuqlar ham bisyor,

deyishadi. Bu ijobiy natijalar tufayli katta leytenant Maqsadbek Ibragimov yilning eng faol yosh xodimlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

POSBONIMAN MUQADDAS YURTNING!

Ona Vatan tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'idek saqlash har bir yigitning muqaddas burchidir. Ana shunday sharaflilik kasbga o'zini baxshida etgan harbiy xizmatchilardan biri – III darajali serjant Abdulhay Ahmatov.



Toshkent viloyatining Bekobod tumanida tug'ilib o'sgan lavhamiz qahramoni yoshligidan harbiylarga havas qildi. Ayniqsa, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy viloyatida joylashgan 7532-harbiy qismda yigitlik burchini o'tagach, sohaga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Shundan so'ng poytaxtimizdagi 7534-harbiy qism 3-batalyon aloqa posti texnik telegrafisti lavozimida shartnoma asosida xizmatni davom ettirdi.

Lavhamiz qahramoni o'tgan yillar davomida o'z ustida tinimsiz izlanib, kasbiy, jangovor va jismoniy salohiyatini yanada oshirdi. Ustoz serjant Vosit Abdurahmonovdan harbiy ko'nikmalarni o'rgandi. Endilikda, yetarlicha tajriba va mahoratga ega bo'lgan Abdulhay qo'shinlarga qarashli Toshkent viloyatida joylashgan 7535-harbiy qismda fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

Yurt osoyishtaligini ta'minlash barobarida sport bilan ham muntazam shug'ullangan A. Ahmatov armrestling bo'yicha o'tkazilgan Ichki ishlar vazirligi va respublikamiz miqyosidagi ko'plab musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kirityapti. Hozirda yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda ham baland ko'tarish va yanada yuksak marralarni zabt etish maqsadida keyingi musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rayotgan Abdulhay turmush o'rtog'i Nilufarxon bilan birgalikda Ahmadjon ismli o'g'lini tarbiyalab, kamolga yetkazmoqda.

Vadim TO'XTAYEV,
oddiy askar.



ОЙБЕК ТАВАЛЛУДИНИНГ 120 ЙИЛЛИГИГА

ШАМОЛ БЕЛАНЧАГИДАГИ ОҚ ГУЛ

Хар бир санъаткорнинг «ташриф қоғози»га айланган ўз яратиб бўлади. Актёрларнинг кино ё театр сахнасида ҳайратланарли даражада гавдалантирган образи, ҳофизнинг юракларга муҳрланган таронаси, ижодкорнинг бетакрор асари муаллифининг муқобилига айланади. Бор-йўғи 31 баҳорни қаршилаган кезлари қалб кўридан тўкилган «Наъматак» шеъри ҳам ижодий мероси 20 жилдга жо бўлган Ойбекнинг бутун ҳаёт йўлини, таъбир жоиз бўлса, суврати ва сийратини акс эттирган асардир.

Ёниқ қалбли шоир сийратини сувратга айлантирган «Наъматак»ни шеърхон халқимиз баҳор элчисини қаршилагандек шодон кутиб олди. Зеро, у сиртдан қараганда, фусункор табиат манзарасидан илҳомланган ижодкор дилида уйғонган гўзал ҳислар, чексиз завқ-шавққа тўла таассуротларни ўзида жамлаган бетакрор асардир.

**Нафис чайқалади бир туп наъматак
Юксақда, шамолнинг беланчагида...**

Бинобарин, ўша давр адабиётшунослари энг романтик оҳанглар билан бошланган, кўтаринки ноталарда куйланган бу асарни она табиат гўзаллигига бағишланган шуқуҳли қасида сифатида баҳолашган. Ушбу фалсафий шеърни Ойбек ижодининг ютуқларидан бири сифатида баҳолаб, уни ҳаётсевар шоирнинг ўтлиғ ҳис-туйғуларини ёрқин акс эттирган асар деб талқин қилган мунаққидлар асар қатларида қандай асрорлар яширинганини очишдан ўзларини тийишган. Шу ўринда эътироф этиш жоизки, айрим адабиётшунослар бу асар ҳақида ўз иқтидоридан ошириб бошқачароқ сўз айта олмаган бўлса, баъзилари замона зайлидан келиб чиқиб, наъматак гулининг тагидаги таассуротларни талқин этишдан сақланишган.

Кимдир ундаги «нафис чайқалаётган наъматак» ва «ўшшайган қоя», наъматакнинг «сўнмас табас-сум»и ҳамда «ваҳший тош» каби қарама-қарши тимсоллар шеърга драматик руҳ бағишлаганини таъкидласа-да, бироқ ана шу «драматик руҳ»нинг ич-ичига кирмайди. Бошқа бир мунаққид шеърнинг гўзаллигини шоирнинг тоғ ён бағрида ўсган, изғиринларга, совуқ шамолларга, бўронларга бардош бериб, уларнинг ҳамлаларидан омон қолган, бир сават оқ гулни қуёшга тутиб, булутларга бош кўтарган наъматак образи орқали нурни, ҳаётни улуғлашида кўрган. Хуллас, улар талатўпларга тўла давр қанчадан-қанча тақдирларни синдирган ва яна қанчасининг келажагига соя солиб турган бир пайтда ўз жонларини сақлаш учун ҳам, бу бетакрор шеърнинг ташқи гўзаллиги билан кифояланишган...

Келинг, энди Ойбек изларидан бориб, «ҳамиша навқиронликка, ҳамиша нурга, мукамалликка интилишнинг, ҳаёт қудратининг поэтик рамзига айланган» наъматак ўсган Чимёнга, ўша долғали даврга ҳаёлий саёҳат қиламиз.

1936 йили Ўзбекистонда Пушкиннинг 100 йиллигига кенг кўламли тайёргарлик ишлари бошланади. Хусусан, бир гуруҳ адиблар Чимён тоғ бағрида ойлаб ўтовларда яшаб, «рус поэзиясининг қуёши» яратган асарларни ўзбек тилига ўгиришади. Улар орасида бўлган Ойбек Чимён тоғ тизмаси гўзалликларидан илҳомланиб «Чимён дафтари» деб ном олган бир туркум шеърлар яратади. Биз фикр юритаётган «Наъматак» шеъри ҳам шу давр маҳсулидир. Бироқ Ойбекнинг она табиат гўзаллигига ошуфта кўнгилдан кечган ҳассос ҳислардан туғилган бу кўшиқ қатида шоир юрагини ўртаган аламли дардлар яширинган.

Бу таҳликали таассуротлар туйқус туғилмаган эди, албатта. Ойбекнинг илк шеърий тўплами нашрдан чиққан йили ўзбек миллий романчилигига асос солган Абдулла Қодирий биринчи марта қамоққа олинганди. Орадан бир йил ўтиб-ўтмай,

халқ қудратини баланд пардаларда куйлаган, эрк ва озодликка жонини тиккан Чўлпонни бадном қилишга бағишланган мақолалар матбуотда басма-бас босила бошлади. Ойбек ўзининг бахт учун яралган бекаси Зарифахоним билан турмуш қурган йили Қодирий, Фитрат, Чўлпон каби ўнлаб миллат ойдинлари «ўнг бурилишдаги йўловчи»лар сифатида қораланди. Худди шундай мафкуравий танқид тиғи Ойбекнинг кўксини ҳам тилиб ўтди. Унга «оғмачи йўлчи» деган ғалати тамға босилди. Шеър ёзилган даврга келиб эса ижтимоий-сиёсий вазият анча таранглашган, барча миллий республикаларда қатағон сиёсатининг қора булутлари қуюқлашиб, «ажал машинаси» ишга туша бошлаганди.

Бутун умр эрка талпиниб, энди ҳур бўлдим, эмин-эркин яшайман деган халқнинг шўролар тузумининг олдингидан-да бешафқат кулфатларига учрагани, миллат ойдинларининг бошига ёғилаётган тўхмат тошлари ҳассос нафасли, теран ўй-фикрли ва инжа қалб соҳиби бўлган Ойбекни беҳад қийнайди. Шу боис, бир қарашда, она табиат гўзаллигига ошуфта кўнгилда туғилган кўшиқдек янграйдиган шеърда рамзий тимсоллар чуқур ватанпарварлик ва миллатпарварлик туйғуларига қоришиб кетади.

Жаҳон адабиёти дурдоналари, хусусан, Александр Блок ва Константин Бальмонт каби рус символистлари, айниқса, ўзига устоз деб билган Чўлпон ижодининг таъсирида бўлган Ойбек она табиатнинг ёрқин ва бой бўёқлар дунёсини нозик илғаган куйчи сифатида кўнгил кечинмаларини рамзлар орқали ифода этади. Эътибор бериб қаралса, Ойбек шеърдаги наъматак халқнинг, Ватаннинг рамзидир. У ўшшайган қоялар, ваҳший тошлар бағрида яшаса-да, ўз ҳаётини қудратини намойиш этиб, барқ уриб, гуллаб-яшнаб қуёшга, нурга, бахту саодатга талпиниб туради. Аксинча, уни ўраб турган ўшшайган, ваҳший қоялар ва тошлар эса қуёшга, нурга, бошқача айтганда, эрка интилаётган халққа зўравонлик қилаётган қизил империя тимсолидир. Шамол беланчагида оҳиста тебранаётган оқ гул, шубҳасиз, тебраниб турган дунёнинг эртанги куни бошига қандай балоларни ёғдиришидан хавотирда яшаётган Ойбек ва унга ўхшаган миллат ойдинлари тимсоли бўлиб гавдаланади.

Темир ҚУРБОН.

ОЙБЕК
(1905–1968)



Ўзбекистон халқ ёзувчиси, Ўзбекистон ФА академиги Ойбек (Мусо Тошмуҳаммад ўғли) 1905 йил 10 январда Тошкент шаҳрида туғилган. Тошкент университетининг ижтимоий фанлар факультетида, Ленинград халқ хўжалиги институтида ўқиган. «Туйғулар», «Кўнгил найлари», «Машъал» шеърий тўпламлари, «Дилбар – давр қизи», «Уч», «Бахтигул ва Соғиндик», «Қаҳрамон қиз», «Гулноз», «Камончи», «Навий» сингари дostonлар ёзган. Насрий мероси 5 роман, 4 қисса ҳамда бир қанча ҳикоя ва очерклардан иборат. «Евгений Онегин», «Маскарад», «Тартюф» каби жаҳон адабиёти дурдоналарини ўзбек тилига таржима қилган.

Ойбек 1968 йил 1 июлда Тошкентда вафот этган. Вафотидан сўнг «Буюк хизматлари учун» ордени билан тақдирланган.

НАЪМАТАК

**Нафис чайқалади бир туп наъматак
Юксақда, шамолнинг беланчагида,
Қуёшга кўтариб бир сават оқ гул,
Виқор-ла ўшшайган қоя лабида.**

**Нафис чайқалади бир туп наъматак
Майин рақсига ҳеч қоникмас кўнгил,
Ваҳший тошларга ҳам у берар фусун,
Сўнмайди юзида ёрқин табассум.**

**Яноқларни тутиб олтин бўса-чун,
Қуёшга тутуди бир сават оқ гул!
Пойида йиғлайди кумуш қор юм-юм...
Нафис чайқалади бир туп наъматак...**

**Шамол инжуларни сепар чашмадак
Бошида бир сават оқ юлдуз — чечак,
Нозик саломлари нақадар маъсум!
Тоғлар ҳавосининг фирузасидан**

**Майин товланади бутун ниҳоли.
Ваҳший қояларнинг ажиб ижоди:
Юксақда рақс этар бир туп наъматак,
Қуёшга бир сават гул тутиб хурсанд!**

1936 йил.



MANDARIN – DASTURXONIMIZDA

Xushbo'y hidli, nordon aralash shirin ta'mli mandarin turli vitamin, antioksidant va boshqa foydali moddalar manbai hisoblanadi. Ushbu mevaning 85 foizi suvdan iborat. Bundan tashqari, u daraxtda o'sgani bois tarkibida tuproqda to'planuvchi og'ir metallar va radionuklidlar yo'q.

Mandarin sovuq ob-havo sharoitida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan S vitaminiga boy. U immun hujayralarini faollashtirib, organizmga infeksiya va viruslarga qarshi kurashishda yordam beradi. Ushbu mahsulot ovqat hazmini yaxshilab, oshqozon-ichak trakti mikroflorasini tiklaydi va metabolizmni tezlashtiradi. U tufayli boshqa oziq moddalari yaxshi o'zlashtiriladi.

Mazkur meva tashvishli xavotir, bezovtalik va stress holatlarida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarkibidagi B vitamini asab tizimini himoya qiladi va tinchlantiradi, S vitamini esa buyrak usti bezlari ishini tartibga solib, stress gormoni bo'lgan kortizol sintezini qisqartiradi. Bundan tashqari, mandarinning efir moyi uyqusuzlik va yomon kayfiyatga qarshi eng yaxshi tabiiy vositalardan biridir.

Mevaning oq taramli tomirchalarini olib tashlamang, uning tarkibidagi nobiletin deb atalmish flavonoid kuchli shamollashni davolashda qo'l keladi. Kuniga iste'mol qilingan 2-3 dona mandarin immunitetni mustahkamlab, shamollashning oldini oladi.

Shuningdek, shamollaganda dori-darmonlarga qo'shimcha ravishda uning po'stidan tayyorlangan choyni iste'mol qilish tavsiya etiladi. Bunday ichimlik quruq yo'talni yengillashtiradi, balg'amni yumshatib, uning o'pkadan chiqib ketishiga yordam beradi. Bemorning harorati ko'tarilganda, askorbin kislotasi organizm suvsizlanishining oldini oladi, mandarin yog'i esa bakteriya va zamburug'lar ko'payishiga yo'l qo'ymaydi.

Mandarin tarkibida shakar moddasi ko'p bo'lishiga qaramay, u kam kaloriyalik hisoblanadi va vazn tashlashga xizmat qiladi, ortiqcha yog'larni parchalaydi va yurakni tetiklashtiradi. Tarkibidagi kaliy va kalsiy modda almashinuvini yaxshilaydi, biriktiruvchi to'qima esa to'qlik hissini beradi. A va S vitaminiga boy bo'lgan mandarin teri holatini yaxshilaydi, yaralarning tez bitishiga yordam beradi va erta qarish alomatlari: ajinlar, teri egiluvchanligining kamayishi, quruqlikning oldini oladi.

Ushbu sitrus meva bir qator foydali xususiyatlarga ega bo'lishi-

ga qaramay, ba'zi insonlarga man etiladi. Uni o'tkir nefrit, gepatit va xolestsistit xastaligi, shuningdek, oshqozon yoki o'n ikki barmoqli ichak yarasi bo'lgan bemorlar iste'mol qilmagani ma'qul. Mandarin oshqozon va ichak shilliq qavatini ta'sirlantirgani bois, uni och qoringa yeyish tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, boshqa sitrus mevalar kabi, u ham allergiya qo'zg'atuvchi xususiyatga ega. Ushbu mahsulot tarkibida shakar miqdori ko'p bo'lgani sababli qandli diabet aniqlangan kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mandarin sitrus meva bo'lgani bois, uni me'yordan ortiq iste'mol qilish sog'lom kishiga ham zararli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, allergik kasalliklarni, ayniqsa, bolalarda laringitni qo'zg'aydi. Shuning uchun mandarinni 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga berish tavsiya etilmaydi. Agar farzandingizda mandarin iste'molidan keyin xurujli yo'tal paydo bo'lsa, ovoz bo'g'ilishi kuzatilsa, darhol shifokorga murojaat qiling.

Tavsiyalarga amal qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.

KEPAKLI NONNING FOYDASI

Kepakli un inson organizmi to'laqonli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bir qator vitamin va turli mikroelementlarga boy bo'lib, A, E va B guruhi vitaminlari, rux, marganes, fosfor, magniy, kaltsiy va magniy shular jumlasidandir. Shu bois bunday undan tayyorlangan mahsulotlar immunitetni mustahkamlaydi, organizmning kasalliklarga qarshi kurashuvchanligini oshiradi.



Bundan tashqari, ushbu undan tayyorlangan non tanadagi oqsil, yog', suv-tuz va energetik almashinuvni yaxshilab, oshqozon, mushak va asab tizimlari faoliyatini tartibga soladi. Shu bilan birga, oz miqdorda yeyilganda ham, to'qlik hissini bergani bois semirishning oldini oladi va tana vaznini me'yorlashtiradi. Kepakli un tarkibidagi kaltsiy va rux teri, soch va tirnoqlar holatini yaxshilaydi, suyak va bo'g'imlarni mustahkamlaydi.

Kepakli non to'g'ri ovqatlanishda taomnomaga kiritish uchun ajoyib tanlovdir. U ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini me'yorlashtirib, zaharli moddalar (toksinlar)ning organizmdan chiqarilishiga yordam beradi, ichaklarni shlaklardan tozalaydi, qabziyatni bartaraf etadi. Shuningdek, kepakli undan tayyorlangan mahsulotlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, qon aylanishini yaxshilaydi, xolesterin miqdorini kamaytiradi, qonda qand miqdorini me'yorlashtiradi.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.

ПОЛЕЗНЫЕ ЛОР-СОВЕТЫ

С возрастом острота слуха снижается – это известно всем. Но процесс этот можно замедлить.

1. Держитесь подальше от громких звуков. Например, громкость телевизора, компьюте-



ра, стереосистемы или радио должна быть включена на среднем уровне.

2. Регулярно чистите уши. Просто мойте их водой. Не зачищайтесь на удалении всей ушной серы, потому что для правильной работы органов слуха требуется минимальное количество серы.

3. Избегайте сильного ветра. Циркуляция воздуха, с чрезмерной скоростью попадая в уши, может вызывать приступы боли и воспаления. Убедитесь, что у вас есть хорошая защита от ветра, когда вы выходите на улицу.

4. Если во время ОРВИ возникает снижение

слуха, то это серьезный повод обратиться к ЛОР-врачу. Иногда некоторые лекарственные препараты или сами вирусы оказывают негативное воздействие на слуховой нерв и слуховые рецепторы, расположенные в улитке. К сожалению, в процессе лечения слух не всегда восстанавливается полностью, но успех мероприятия зависит от того, насколько рано пациент обратился за помощью.

При носовом кровотечении не запрокидывайте голову.

Это не остановит кровотечение. Кровь при запрокидывании головы обычно сглатывается, количество потерянной крови будет сложно оценить, что затруднит последующие действия врача. Через некоторое время из-за попавшей в желудок крови может возникнуть рвота, усиливающая кровотечение.


Совет: сядьте ровно, наклоните голову несколько вперед и книзу над небольшим лотком, отсморкайтесь, сделайте несколько сильных вдохов через нос – кислород обладает кровоостанавливающим



эффектом. Придавите крыло носа к кровотокающей зоне перегородки носа на несколько минут. Измерьте давление. Если вы гипертоник и давление повышено, примите ваш препарат от давления и обратитесь к ЛОР-врачу.

При воспаленном горле и охриплости голоса крайне важно соблюдать голосовой покой.

Совет: говорите мало, спокойным негромким голосом, противопоказаны крик, пение, смех, шепотная речь. Проявите стойкость в соблюдении режима голосового покоя, в итоге получите более ранний результат: выздоровление и восстановление нормального тембра голоса. Если прошло несколько недель, а голос не восстанавливается, обязательно посетите ЛОР-врача. Длительная охриплость может быть проявлением иных, более опасных заболеваний.



ДЕТСКИЙ УГОЛОК



Вы, мальчишки, наша гордость,
Наша сила, мощь и стать.
В День защитника хотим мы
Вам сердечно пожелать
Стратегических решений
И надежнейших тылов,
Лишь побед без поражений,
Дома чтоб ждала любовь,
Дух был сильным, тело – крепким,
Друг был верным на века.
Мира над страной любимой,
В сердце – счастья огонька.



Загадки

Какое животное по-
мощает нам переходить
улицу?

(Зebra)

* * *

Чем кончается лето и
начинается осень?

(Буква «О».)

* * *

Прибежит и солнце
спрячет,

А потом еще заплачет.

(Туча)

* * *

Говорит она беззвучно,
А понятно и нескучно.
Ты беседуй чаще с ней –
Станешь вчетверо умней.

(Книга)

ДО ПЕРВОГО ДОЖДЯ

Таня и Маша были очень дружны и всегда ходили в детский сад вместе. То Маша заходила за Таней, то Таня за Машей. Один раз, когда девочки шли по улице, начался сильный дождь. Маша была в плаще, а Таня в одном платье. Девочки побежали.

– Сними свой плащ, мы накроемся вместе! – крикнула на бегу Таня.

– Я не могу, я промокну! – нагнув вниз голову с капюшоном, ответила ей Маша.

В детском саду воспитательница сказала:

– Как странно, у Маши платье сухое, а у тебя, Таня, совершенно мокрое, как же это случилось? Ведь вы же шли вместе?

– У Маши был плащ, а я шла в одном платье, – сказала Таня.

– Так вы могли бы укрыться одним плащом, – сказала воспитательница и, взглянув на Машу, покачала головой.

– Видно, ваша дружба до первого дождя!

Обе девочки покраснели: Маша за себя, а Таня за Машу.



МАТЕМАТИЧЕСКОЕ ЗАДАНИЕ

1	+		=	4			3	-		=	
+				-		-	+				+
8			+		=	7					6
=			=		=		=			=	
	-		=	2	1			-		=	6
			-							+	
4	+		=				3	+	5	=	
			=							=	
	-	3	=	3			10	-		=	
+			+		-		-			+	
2			2	+	0	=					
=			=		=		=			=	
	-		=		7			-		=	2

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(13-yanvardan 19-yanvargacha)



Qo'y. Kelayotgan hafta moddiy holatni yaxshilab olish uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Hayotingizga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan odamlar bilan tanishish ehtimoli yuksak. Haftaning ikkinchi yarmida, ayniqsa, notanish insonlarga nisbatan o'ta ishonuvchanlik sizga pand beradi.



Buzoq. Bu davrda rejalashtirilgan muhim ish va uchrashuvlar muvaffaqiyatli kechadi. Kuchg'ayrat, imkoniyat va salomatlik sizning foydangizga xizmat qiladi. Bundan unumli va maqsadli foydalanish o'zingizga bog'liq. Jizzakilik va ta'sirchanlikni unuting, faqat shundagina muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin.



Egizaklar. Yosh mutaxassislar o'z hamkasblaridan yaxshi madad olib, ishdagi ayrim nuqsonlarni yo'qotishga va o'z kamchiliklarini tuzatishga muvaffaq bo'ladi. Bu hafta mobaynida siz bilan hamkorlik qiluvchilardan takliflar kelib tushishi mumkin. Omad siz tarafda, uni qo'ldan boy bermang!



Qisqichbaqa. Bu hafta ikkilanayotgan ishga qo'l urmagan ma'qul. Hafta mobaynida qat'iy bir qarorga kelishga urinmang. Anglashilmovchilik va ko'ngilsizliklarni yurakka yaqin olish kerak emas. Qiyinchiliklar tez orada bartaraf bo'ladi.



Arslon. Hafta davomida pul muammosi yuzaga kelishi mumkin. Lekin tez orada ishlar iziga tushib ketadi. Bu davrda turli xarajatlarni qisqartirganingiz sizga foyda beradi. Hafta mobaynida qattiq mehnat qilishga to'g'ri kelsa ham dam olish yodingizdan ko'tarilmasin.



Parizod. Hafta boshida horg'inlik va charchoq holati sizga hamrohlik qiladi. O'zingizni o'zingiz ruhlantiring, kayfiyatingizni tushirmang. Oila a'zolari bilan samimiy munosabatda bo'lishga e'tibor qarating. Yaqin va qadrdon insonlar bu davrda ruhiy ko'mak berib, sizni qo'llab-quvvatlashadi.



Tarozi. Haftani ishdagi katta muvaffaqiyatlar bilan xushkayfiyatda boshlaysiz. O'ylab qo'ygan har bir ishingiz amalga oshadi. Juma xarid uchun omadli kun hisoblanadi. Haftaning so'nggi kunlarini o'zingizga, sog'liqni mustahkamlashga va miriqib dam olishga sarflang.



Chayon. Ishlardan biroz chalg'ib, e'tiborni shaxsiy muammolarga qaratish imkoni tug'iladi. Oiladagi tushunmovchiliklar hal etiladi. Hozircha katta rejalar haqida bosh qotirmaganingiz ma'qul. Dam olish kunlarida yaqin do'stlarni ziyorat qilish kayfiyatingizni ko'taradi.



O'qotar. Shu kunlarda yuz beradigan voqea-hodisalar ayrim masalalarga munosabatini o'zgartirishi mumkin. Oldinlari qilib qo'ygan xato va kamchiliklarni tuzatasiz. Shuningdek, ishdagi ko'plab muammolarni hal etishning ayni vaqti. Har bir rejani puxta o'ylab, amalga oshirishga harakat qiling, lekin orada dam olishni ham unutmang.



Tog' echkisi. Sizdagi ko'tarinki kayfiyat har qanday ishni qoyillatib bajarishga yordam beradi. Lekin buning uchun rosa ter to'kishga to'g'ri keladi. Kelayotgan hafta dam olish uchun ham juda qulay. Oila a'zolaringiz bilan safarga chiqish ehtimoli bor.



Qovg'a. Sizda yon-atrofdagi odamlarni yoq-tirmaslik hissi kuchayib bormoqda. Bu davrda salbiy oqibatlarining oldini olish uchun ko'proq ochiq havoda sayr qiling, musiqa tinglab, to'yib uxlang. Shuningdek, asablarni tinchlantirishga, hech kim bilan nizoga bormaslikka harakat qiling.



Baliq. Aqlga keladigan yengil-yelpi, havoyi g'oyalarni haydang. Haftaning ikkinchi yarmida hamma ishlar ijobiy tus ola boshlaydi. Ishxonadagi hamkasblar bilan iloji boricha yaxshi muomalada bo'lishga harakat qiling. Hafta oxirida pulni biroz tejab ishlating.

ХАВОТИРГА АСОС ЙЎҚ

Ижтимоий тармоқларда метапневмовирус инфекцияси ва унинг COVID-19 дан ҳам хавфли эканлиги ҳақида хабарлар тарқалди. Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси ушбу касаллик тўғрисида маълумот берди.

Унда айтилишича, метапневмовирус биринчи марта 2001 йилда аниқланган бўлиб, асосан ҳаво-томчи йўли билан, камдан-кам ҳолатларда эса ифлосланган юзлар билан алоқа қилиш орқали юқади. Вирусни асосан куз-қиш мавсумида фаол айланиши кузатилади.

Метапневмовирус инфекцияси, одатда бурун оқиши, йўтал ва иситма каби белгилари билан ўткир респираторли инфекциялар шаклида намоён бўлади, баъзи ҳолларда бронхиолит ва пневмонияни келтириб чиқаради. Метапневмовирус билан касалланган одамларнинг аксарияти асоратларсиз тузалиб кетади.

Ушбу вирус билан касалланиш ҳолатлари ҳар йили дунёнинг барча мамлакатларида қайд этилади.



Бутун дунёда бўлгани каби, қўшни Қозоғистон Соғлиқни сақлаш вазирлиги матбуот хизмати тарқатган хабарда, айтилган ўткир респиратор вирусли инфекциялар ва грипп билан касалланишнинг мавсумий ўсиши кузатилаётгани, шу билан бирга метапневмовируснинг ҳам қайд этилгани эълон қилинган.

«Айни вақтда республикада ҳам ўткир респиратор инфекцияларга чалиниш ҳолатларининг мавсумий кўтарилиши кузатилмоқда», дея қайд этилган қўмита хабарида.

Ушбу респиратор инфекцияларнинг сўнг-

ги лаборатор таҳлиллари натижасига кўра: 36,9 фоизда грипп вируси, 30,2 фоизда риновирус, 28,6 фоизда респиратор-синцитиал вирус, 1,2 фоизда метапневмовирус ва 3,1 фоизда бошқа вируслар аниқланган.

Мамлакатимизда Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси шу ўринда фуқаролар ушбу инфекцияларни юқтириб олмасликларини учун профилактика ва гигиена қоидаларига риоя қилиш, одамлар гавжум жойларга, айниқса ёш болаларни олиб юришни чеклаш, ка-

саллик белгилари пайдо бўлган оила аъзоларини алоҳида сақлаб, шифокор кўрсатмасига асосан даволанишни тавсия қилди.

Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳам ҳолат юзасидан муносабат билдириб, метапневмовирус янги касаллик эмаслигини, ортиқча хавотирга ҳожат йўқлигини билдирди.

Вазирликнинг билдиришича, касалликни даволаш одатда симптоматик бўлиб, асосан уй шароитида беморнинг аҳволини энгиллаштиришга қаратилган муолажалар қўлланилади. Оғир ҳолатларда кислородли терапия ёки касалхонага ётқизиш талаб қилиниши мумкин.

Ҳурматли ички ишлар органлари ходимлари, фахрийлар ва уларнинг оила аъзолари, юқорида келтирилган маълумотларга кўра, ижтимоий тармоқларда тарқалаётган хабарлардан зинҳор хавотирга тушмаслигиниз, агарда мавсумий шамоллаш инфекцияларига чалиниш ҳолатлари бўлса, яшаш манзилингиздаги Тиббиёт муассасаларига мурожаат қилишиниз тавсия қилинади.

Рамзиддин МУҲИТДИНОВ,
подполковник.

КЕЧА

ВА

БУГУН



Фарғона вилояти ИИБ.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonada manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №51.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 46295 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

